2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 95 (1156), 2024-yil 17-may, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

YANGI O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’ATNI RAVNAQ TOPTIRISH YO‘LIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AMALIY IFODASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykalining ochilish marosimida ishtirok etdi, madaniyat va san’at sohasidagi yangi maskan va loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari milliy estrada san’ati asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda san’at muxlislarini qizg‘in tabrikladi.

— Bugun yurtimizda katta shodiyona — san’at va madaniyat bayrami. Azim Toshkent shahrining qoq markazida xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlab muazzam haykal ochilmoqda. Mana shu quvonchli voqea munosabati bilan siz, azizlarni, rahmatli Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislarini, butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman, — dedi Prezident.

Botir Zokirov 1936-yilda san’atkorlar oilasida tug‘ilib, voyaga yetgan. 29 yoshida O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. 2000-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” va 2021-yilda “El-yurt hurmati” ordenlari bilan mukofotlangan.

Davlatimiz rahbari xonandaning benazir iste’dod va insoniy fazilatlarini e’tirof etdi.

Botir Zokirov juda qisqa — 49 yil umr ko‘rgan. Lekin shu yillar davomida o‘zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirgan. Uning sehrli ovozi yurtimizdagi har bir xonadonga kirib borib, xalqimiz qalbidan, san’atimizning oltin fondidan joy olgan. Dunyoning madaniyat poytaxtlarida o‘zbek san’atini zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyish etgan.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to‘lgan paytida og‘ir dardga yo‘liqadi. Bir necha marta jarrohlik amaliyotlarini boshidan o‘tkazadi. Shifokorlar unga qo‘shiq aytishni taqiqlab qo‘yadi. Lekin shu ahvolda ham ijoddan, kuylashdan to‘xtamaydi.

Botir Zokirov umr bo‘yi yangilikka intilib yashardi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san’atini uyg‘unlashtirib, “Muzik xoll” ijodiy jamoasini tashkil etgan, xonanda va kompozitor sifatida ko‘plab iste’dodli yoshlarga ustozlik qilgan. Respublikamizda xizmat ko‘rsatgan “Yalla” ansamblining tashkil topishida Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV HAYKALINING OCHILISHIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli madaniyat va san’at namoyandalari!

Bugun yurtimizda katta shodiyona — san’at va madaniyat bayrami. Azim Toshkent shahrining qoq markazida xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlab muazzam haykal ochilmoqda.

Mana shu quvonchli voqea munosabati bilan siz, azizlarni, rahmatli Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislarini, butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Muhtaram do‘stlar!

Muqaddas yurtimiz zaminidan asrlar davomida ne-ne buyuk alloma va shoirlar, adib va me’morlar, muhandis va rassomlar, hofiz va bastakorlar yetishib chiqqanini yaxshi bilamiz. XX asrda ana shunday ulug‘ zotlarning munosib davomchisi bo‘lib Botir Zokirov san’at maydoniga chiqdi.

Barchamizga ma’lumki, u O‘zbekiston xalq artisti Karim Zokirov va xonanda Shohista Saidova oilasida, ziyoli bir muhitda tug‘ilib, voyaga yetgan edi.

Taqdir Botir Zokirovning zimmasiga o‘zbek estrada san’atining asoschisi bo‘lishdek ulug‘vor bir vazifani yukladi va bu vazifani u sharaf bilan ado etdi.

U san’at olamiga qadam qo‘yganida respublika va sobiq ittifoq sahnalarida biri biridan buyuk va betakror xonandalar shuhrat cho‘qqisiga ko‘tarilib ulgurgan edi. Ana shunday mashhur san’at darg‘alari orasida munosib o‘rin egallash oson emas edi.

Ammo, Alloh taoloning o‘zi Botir Zokirovga ato etgan benazir iste’dod va insoniy fazilatlar tufayli u san’at olamida chinakam mo‘jizalar yaratdi.

Bunday yuksak darajaga erishish uchun u, avvalo, xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga, mumtoz musiqa merosimiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayandi.

Botir Zokirov hayot mashaqqatlaridan qo‘rqmaydigan, har qanday sharoitda ham faqat ezgu maqsad sari intiladigan beqiyos iroda va matonat sohibi edi.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to‘lgan paytida og‘ir dardga yo‘liqdi. Xastalik tufayli bir necha marta g‘oyat murakkab tibbiy operatsiyalarni boshidan o‘tkazdi. Shifokorlar hofizning hayotini saqlab qolish uchun unga qo‘shiq aytishni taqiqlashga majbur bo‘ldilar.

Ammo “Kuylamoq — yashamoq demakdir” degan e’tiqodni hayot mazmuni deb bilgan, ismi jismiga mos o‘zbek o‘g‘loni qo‘shiq aytishdan to‘xtamadi. Qalbidagi ezgu tuyg‘ularni yanada to‘lib-toshib kuyladi. Hech shubhasiz, bunday jasorat, san’atga bunday fidoyilik cheksiz hayrat va tahsinga loyiqdir.

Aziz yurtdoshlar!

Botir Zokirov yashab ijod qilgan murakkab zamonda uning iste’dodi, shon-shuhratiga g‘arazli ko‘z bilan qaraydigan kimsalar ham, afsuski, yo‘q emasdi. Lekin hayotni kurash maydoni deb bilgan bu matonatli inson barcha to‘siqlarni mardona yengib o‘tdi.

Betakror hofizning billurdek tiniq ovozida xalqimizning asriy orzu-armonlari, yorug‘ kunlarga ishonchi baralla yangradi. U qisqa muddatda sobiq sho‘ro makonida millionlab ixlosmandlarga ega bo‘lgan sevimli san’atkorga aylandi. Botir Zokirov SSSRdagi barcha yirik shaharlar, dunyoning manaman degan madaniyat poytaxtlarida o‘zbek san’atini zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyish etdi.

Xonandaning ijodiy repertuari uning go‘zal va hassos qalbi singari keng edi. Uni hindlar — hind deb, fransuzlar — fransuz, arablar — arab qo‘shiqchisi deb qabul qilishar edi.

Ayniqsa, 1966-yili Parijga qilgan ijodiy safari Botir Zokirovga olamshumul shuhrat keltirdi. Ushbu shahardagi mashhur “Olimpiya” teatri sahnasiga ko‘tarilib, ikki marta kuylash — e’tibor bering, ikki marta kuylash — dunyoda kamdan-kam ijrochiga nasib etgan. Noyob iste’dodi bilan jahonni zabt etgan bunday afsonaviy san’atkorimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi.

Davomi 2-betda

MALAYZIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONGA KELADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim 17-19-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrifning birinchi kunida Toshkent shahrida oliy darajadagi tadbirlar va muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan tizimli siyosiy muloqotni rivojlantirish va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, innovatsiyalar, energetika, neft-kimyo, sanoat, elektrotexnika va elektronika, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida aniq kooperatsiya dasturlari va loyihalarini ilgari surish masalalari o‘rin olgan.

Bundan tashqari, xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

Malayziya Hukumati rahbari Samarqand va Buxoro shaharlariga ham tashrif buyurib, xalqimizning boy madaniy-tarixiy va ma’naviy merosi bilan tanishadi, qo‘shma biznes-forumida ishtirok etadi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

Adolat sog‘inchi va Uyg‘onish ramzi

O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi o‘ziga xos san’at va madaniyat bayramiga aylandi

HECH BIR TASHABBUS BEJIZ EMAS

Inson — fikrat olami, shuningdek, xayolot va xotiralar, shirin sog‘inchlar iskanjasida yashaydigan xilqatdir. Shu o‘rinda umummillat o‘ylari, mushtarak sog‘inchlar haqida so‘z yuritmoqchimiz. Ulardan biri — **adolat sog‘inchi** bo‘lsa, boshqasi — qadim zamin ohanglari bilan qalbimizga, qon-qonimizga singib ketgan **vujudiy hissiyot birligi.**

Ba’zan ko‘p ishlarni shunchaki jo‘n qabul qilamiz. Go‘yo o‘zi shunday bo‘lishi kerakdek. Aslida esa boshqacha — bu dunyoda hech bir harakat o‘z-o‘zidan sodir etilmaydi. Har bir ishda, har bir tashabbusda hikmat bor, unda fikriy qudrat mujassamlashgan bo‘ladi.

Bir maqolamizda **bugungi siyosiy diplomatiya allaqachon yangi o‘zanini topgani, bu yo‘l “kuch diplomatiyasi”ga asoslangani bilan g‘oyat tahlikali va xatarli bo‘lib qolayotgani** haqida yozgan edik. Bunday deyishimizga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida **“Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz”,** degan g‘oyat dolzarb mushohadalari sabab bo‘lgan edi.

Davomi 3-betda

Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'atimiz tarixida butun bir davrni tashkil etishi ta'kidlandi. Uning boy merosini chuqur o'rganish va xalqqa yetkazish ishlarini davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga alohida qaror tayyorlash topshirildi.

YANGI O'ZBEKISTON

2024-yil 17-may, 95-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV HAYKALINING OCHILISHIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Qadrli marosim qatnashchilari!

Botir Zokirov juda qisqa — bor-yo'g'i 49 yil umr ko'rdi. 29 yoshida O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'ldi. Salkam 30 yillik faoliyati davomida o'zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirdi. O'lmas hofizimizning sehrli ovozi yurtimizdagi har bir xonadonga kirib borib, san'atimiz oltin fondidan, xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

U umr bo'yi yangilikka intilib yashagan, izlanishdan charchamaydigan, odamlarga mehribon, olijanob bir inson edi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san'atini uyg'unlashtirib, "Muzik-xoll" ijodiy jamoasini tashkil etgani, xonanda va kompozitor sifatida ko'plab iste'dodli yoshlarga mehr ko'rsatib ustozlik qilganini alohida ta'kidlash lozim.

Xususan, respublikamizda xizmat ko'rsatgan "Yalla" ansamblining tashkil topishida Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Mana, 50 yildirki, ushbu musiqiy jamoa va uning rahbari, 6 ta mamlakatning "Xalq artisti" degan sharafli unvonga sazovor bo'lgan mashhur xonandamiz Farrux Zokirov jonajon O'zbekistonimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etib kelmoqda.

Bugungi davramizda O'zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovani, Ravshan va Bahodir Zokirovlarni, Zokirovlar sulolasining boshqa ko'plab vakillarini ko'rib turganimdan xursandman. Ayniqsa, Gavhar Zokirovaning ma'naviyatimiz fidoyisi sifatida ko'plab shahar-qishloqlarimizni kezib amalga oshirayotgan ezgu ishlari, yosh avlod tarbiyasi yo'lidagi katta xizmatlari uchun chin qalbimdan tashakkur bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

Botir Zokirov tom ma'noda vatanparvar inson edi. Ona O'zbekistonimizni, azim Toshkentni cheksiz farzandlik mehri bilan sevar, mahoratli rassom, talantli adib va aktyor sifatidagi faoliyatida ham Vatanga muhabbat tuyg'usi jo'sh urib turar edi.

U o'tgan asrning 70-yillarida xalq qahramoni Spitamen haqida "So'g'd elining qoploni" opera librettosini yaratgan va bu asar Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatrda muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan edi.

Bularning barchasi Botir Zokirovning olmosdek serqirra iste'dod egasi bo'lganini tasdiqlaydi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Inson qadrini ulug'lash — Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Ayni shu maqsadda buyuk san'atkorimiz Botir Zokirovning so'nmas xotirasini e'zozlash, uning ijodiy merosini o'rganish bo'yicha mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yili alohida qaror qabul qilinib, xonandaning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi.

Botir Zokirov tahsil olgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan mana shu go'zal va obod ko'chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ulug' hofizimiz nomidagi milliy mukofot ta'sis etildi, estrada ijrochilarining respublika ko'rik-tanlovi muntazam o'tkazib kelinmoqda. Botir Zokirov haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratilmoqda, ilmiy anjumanlar, ijodiy uchrashuv va kechalar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida, ko'rib turganingizdek, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti barpo etildi. Ushbu oliygohda tahsil olayotgan navqiron yoshlarimiz orasidan Botir Zokirov kabi ulug' san'atkorlar albatta yetishib chiqadi, deb ishonamiz va ularning barchasiga omad va zafarlar tilaymiz.

Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan, u kishining do'stlari bo'lmish atoqli san'atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o'tkazildi.

Ushbu musiqiy anjuman xalqimizning o'z ardoqli farzandiga bo'lgan yuksak ehtiromining yana bir yorqin namoyoni bo'ldi.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, bugun sizlarning ishtirokingizda ochilayotgan ushbu muhtasham haykal Botir Zokirov xotirasiga o'rnatilgan ramziy bir timsoldir.

Ayni paytda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'atni ravnaq toptirish yo'lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug' ijodkorga eng munosib yodgorlik bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Hozirgi kunda yurtimizdagi yuzlab musiqa va san'at maktablarida, texnikum va kollejlar, madaniyat yo'nalishidagi institutlarimizda, konservatoriyamizda minglab iste'dodli yoshlarimiz bilim va tarbiya olmoqda. Biz ana shunday iqtidorli o'g'il-qizlarimizni milliy san'atimiz vorislari, barkamol, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazsak, atoqli san'atkorimizning ruhi albatta shod bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'atimiz tarixida butun boshli bir davrni tashkil etadi.

Ulug' san'atkorimizning xotirasini abadiylashtirish, boy merosini chuqur o'rganish va jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu masala bo'yicha yangi qaror loyihasini tayyorlash topshiriladi.

Qarorda, jumladan, Toshkent shahrida Botir Zokirov memorial muzeyini barpo etish, estrada san'ati bo'yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov tashkil qilish, madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun Botir Zokirov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish, "Botir Zokirov" badiiy filmini yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg'arma va Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ko'zda tutilishi lozim.

Fursatdan foydalanib, ushbu hududni obod etishga munosib hissa qo'shgan barcha yurtdoshlarimizga, qo'ligul quruvchi va muhandislar, haykaltarosh va me'morlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Barchangizni bugungi shodiyona kun bilan yana bir bor tabriklayman. Bu joy poytaxtimiz aholisi va mehmonlari uchun qutlug' ziyoratgohga aylanadi, deb ishonaman.

Dunyoga Botir Zokirovdek buyuk zotlarni bergan xalqimiz omon bo'lsin!

Milliy san'atimiz doimo gullab-yashnasin!

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'ATNI RAVNAQ TOPTIRISH YO'LIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AMALIY IFODASI

Boshlanishi 1-betda

Buyuk san'atkorning so'nmas xotirasini e'zozlash, ijodiy merosini o'rganish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda. Xususan, Prezident qarori qabul qilinib, 2021-yilda Botir Zokirovning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi. Ulug' hofiz nomidagi milliy mukofot ta'sis etildi. U haqda ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratildi. Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan atoqli san'atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o'tkazildi.

Botir Zokirov tahsil olgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan ko'chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ushbu konservatoriya huzurida Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti barpo etildi. Endi bu yerda haykal o'rnatilishi majmuaga yanada ko'rk bag'ishladi.

— Bu haykal Botir Zokirov xotirasiga o'rnatilgan ramziy bir timsoldir. Ayni paytda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'atni ravnaq toptirish yo'lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug' ijodkorga eng munosib yodgorlik bo'ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'atimiz tarixida butun bir davrni tashkil etishi ta'kidlandi. Uning boy merosini chuqur o'rganish va xalqqa yetkazish ishlarini davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga alohida qaror tayyorlash topshirildi. Unda Toshkent shahrida san'atkorning memorial muzeyini barpo etish, estrada san'ati bo'yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov va talabalar uchun davlat stipendiyasi joriy etish, badiiy film yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg'arma va Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ko'zda tutiladi.

Marosimda Botir Zokirovning izdoshlari, san'at va madaniyat namoyandalari so'zga chiqdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti faoliyati bilan tanishdi.

Bu ta'lim maskani davlatimiz rahbarining 2020-yil 2-dekabrdagi qarori asosida, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligi doirasida tashkil etilgan edi. Madaniy va ilmiy merosdan foydalanib, milliy estrada san'atini rivojlantirish, mohir ijrochilar va pedagoglar tayyorlash, zamonaviy kuy-qo'shiqlar yaratish institutning asosiy vazifalaridir.

O'tgan yili institut uchun 500 o'rinli yangi bino qurib, foydalanishga topshirildi. Bu yerda o'qish va ijod uchun barcha sharoit yaratilgan. Auditoriyalar zarur musiqa anjomlari va texnikalar bilan jihozlangan.

Institutda estrada vokal san'ati, cholg'u ijrochiligi, texnogen san'at, bastakorlik san'ati, san'atshunoslik, dirijyorlik kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bugungi kunda 479 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularga professor-o'qituvchilar, xalq artistlari dars beradi.

Prezidentimiz dars jarayonlarini kuzatdi, o'qituvchi va talabalar bilan muloqot qildi.

— Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san'atsevar yoshlarimizni tabriklayman. Biz bu ishlarni nima uchun qilyapmiz? San'atimizning buyuk merosini, yoshlarimizning nimalarga qodirligini dunyoga tarannum etish uchun. Institutga milliy san'atimizda fenomen bo'lgan Botir Zokirov nomini berganimiz ham bejiz emas. Bu yerda uning munosib izdoshlarini tarbiyalashni, iste'dodini yuzaga chiqarishni maqsad qilganmiz, — dedi davlatimiz rahbari.

O'quv yurti kutubxonasida sakkiz mingdan ortiq adabiyot va notalar jamlangan. Milliy estrada bo'yicha ilmiy, amaliy va ijodiy izlanishlar olib borish uchun tadqiqot markazi ham tashkil etilgan.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Kinochilar saroyini ham borib ko'rdi.

Ushbu maskan 2021-yil mukammal ta'mirlanib, sharoitlari yangilandi. Katta-kichik zallar, yozgi kinoteatr va xonalar zamonaviy jihozlandi. Bugun bu yerda jami 3 ming nafar tomoshabinni qabul qilish imkoni mavjud.

Davlatimiz rahbari dastlab O'zbekiston kino san'ati muzeyini ko'zdan kechirdi. Muzey 1972-yilda tashkil etilgan bo'lib, ilgari muzey-arxiv sifatida faoliyat yuritgan. Unda ellik mingdan ortiq tarixiy buyum, libos, rasm va kinotasmalar bor.

Endilikda muzey Kinochilar saroyiga ko'chirilib, ko'rgazmaga qo'yildi. Birinchi qavatdagi eksponatlar o'zbek kinosining tarixi va asoschilari, so'nggi yillardagi yutuqlariga bag'ishlangan. Ikkinchi qavatda tarixiy filmlardagi liboslar, atoqli kinoijodkorlar hayoti va faoliyati aks ettirilgan. Ahamiyatlisi, kino ko'rish istagida kelgan borki, shu tarix bilan tanishib o'tadi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda rejissyor va aktyorlar, kinoshunoslar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

— So'nggi yillarda milliy kinomiz qayta "uyg'ondi", desak to'g'ri bo'ladi. Yuqori saviyali, zamonaviy sifatli filmlar paydo bo'ldi. Buning uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga, kinematografiyani rivojlantirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak, degan savol meni o'ylantiradi. Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmoqchi bo'lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Muloqotda Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Tirik tarix" turkumidagi filmlar loyihasi taqdimot qilindi.

Bu 2024-2030-yillarga mo'ljallangan strategik dastur bo'lib, eng qadimgi o'tmishimizdan tortib, yaqin tariximizgacha bo'lgan juda katta davrni qamrab oladi. Yaratilajak filmlarning mavzusi keng va rang-barang.

Jumladan, miloddan avvalgi VI asrda yashagan milliy qahramonimiz Shiroq haqida, milliy davlatchiligimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Alp Er To'nga, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar haqida, shu paytgacha yetarli o'rganilmagan shayboniylar haqida, qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz va boshqa mashhur adiblar haqida, buyuk allomalarimiz va milliy istiqlol kurashchilari haqida hikoya qilinishi ko'zda tutilgan.

Loyihada chet ellik hamkorlar, xususan, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Belarus, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston kabi davlatlarning kino san'ati ustalari ham ishtirok etishi rejalashtirilgan.

— Albatta, bu dastur va g'oyalarni amalga oshirish uchun ko'p moddiy imkoniyat talab etilishini, yuzlab iste'dodli mutaxassislar zarurligini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz tom ma'nodagi ulkan, tarixiy bu loyihaning moliyaviy masalalarini hal qilamiz. Nega deganda, ushbu dastur shonli o'tmishimizni chuqur anglab, shu asosda kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo'yishga, yoshlarni chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalab, Uchinchi Renessansni barpo etishga katta turtki bo'ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muloqotda kinoijodkorlar mazkur turkum filmlar va sohani rivojlantirish yuzasidan takliflarini bildirdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'zA muxbirlari

O'zbekiston — Malayziya:

OLIS MANZILLARNI BOG'LAGAN DO'STLIK, O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O'zbekistonga tashrifi arafasida mamlakatimizning Kuala-Lumpur shahridagi elchisi Karomiddin Gadoyev "Dunyo" AA uchun intervyu berdi va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi holati hamda istiqbollari haqida fikr bildirdi.

— O'zbekiston va Malayziya keng qamrovli muloqotni jadal va samarali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Joriy yil 17-19-may kunlari Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O'zbekistonga tashrifi turli sohalardagi hamkorlikni faollashtirish va ustuvor yo'nalishlarda yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi geografik masofaga qaramay, mamlakatlarimizni tarixiy rishtalar, madaniy va diniy o'xshashlik, an'analar yaqinligi, bag'rikenglik va xilma-xillik kabi umumiy qadriyatlar bog'lab turadi.

Bu yil rasmiy Toshkent va Kuala-Lumpur o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 32 yil to'ldi. Malayziya 1992-yil 1-yanvarda O'zbekiston mustaqilligini Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib tan olgan.

1992- va 2005-yillarda Malayziyaga, 1993- va 2008-yillarda O'zbekistonga oliy darajadagi rasmiy tashriflar doirasida do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun poydevor qo'yildi. Shuningdek, tashriflar davomida bir qator istiqbolli sohalarda hukumatlararo hujjatlar imzolangan. 2003-yilda Malayziya Podshohi Sayid Sirojuddin O'zbekistonga tashrif buyurdi.

So'nggi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada mustahkamlandi. Ikki tomonlama hamkorlikda ijobiy natijalarga erishildi, siyosiy muloqot faollashdi, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini faol qo'llab-quvvatlamoqda, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar taraqqiy etyapti.

2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Podshohi Sulton Abdulloh Rioyatuddin Al-Mustafo Billoh Shoh uchrashdi. Ushbu oliy darajadagi muloqot natijalari ikki tomonlama munosabatlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlaridagi do'stlik guruhlari faoliyati doirasida parlamentlararo aloqalar muvaffaqiyatli rivoj topmoqda. 2023-2024-yillarda ikki davlat tashqi ishlar vazirlarining o'zaro tashrifi amalga oshirildi. Shu yil fevral oyida Kuala-Lumpurda O'zbekiston — Malayziya biznes-forumi bo'lib o'tdi.

2023-yil oktyabr oyida Malayziya turizm, san'at va madaniyat vaziri Tiong King Sing boshchiligidagi delegatsiya Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasida ishtirok etdi va forum davomida turizm sohasida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo anglashuv memorandumi imzolandi.

O'zbekiston va Malayziya tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning beshinchi davrasi 2022-yil mart oyida Putrajaya shahrida tashqi ishlar vazirlari o'rinbosarlari darajasida bo'lib o'tdi. Siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasini joriy yilda Toshkentda o'tkazish rejalashtirilgan.

Malayziya O'zbekistonning ACEAN davlatlari orasida muhim savdo sherigi hisoblanadi. 2023-yilda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yilga nisbatan 3 barobar oshib, 190 million AQSH dollarini tashkil qildi. O'zbekiston Malayziyaga kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik mahsulotlari va mevalar eksport qiladi. Malayziyaning asosiy eksporti mashina va transport uskunalari, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlaridan iborat.

Malayziyalik investorlarning O'zbekistonga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda Malayziya kapitali ishtirokidagi 33 ta korxona faoliyat ko'rsatyapti. E'tiborlisi, ularning 16 tasi 100 foiz Malayziya kapitali asosida tashkil etilgan.

O'zbekiston o'zining strategik joylashuvi, rivojlangan transport infratuzilmasi va qo'shni davlatlar bilan mavjud erkin savdo shartnomalari tufayli Malayziya biznesining 80 million aholiga ega Markaziy Osiyo bozoriga kirishi uchun muhim markaz vazifasini o'tashi mumkin. O'z navbatida, Malayziya o'zbek biznesi uchun Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bozorlariga muhim ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, transport aloqasi masalalari alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda Toshkent va Kuala-Lumpur o'rtasida "Uzbekistan Airways" milliy aviakompaniyasi va Malayziyaning "Batik Air Malaysia" aviatashuvchisi tomonidan haftasiga 4 ta reys amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatlar Markaziy Osiyo va Malayziya o'rtasida muqobil transport hamda logistika yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni davom ettirishdan manfaatdor.

Ta'lim hamkorlikning yana bir muhim sohasi sanaladi. Xususan, ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalari qo'shma ta'lim dasturlari doirasida samarali hamkorlik qilmoqda.

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning yurtimizga birinchi tashrifi va bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi iliq hamda do'stona aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishi, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohada foydalanilmagan salohiyatni faollashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

> **Bugungi kunda O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, balki butun mintaqa va xorijiy hamkorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi formatlarini shakllantirishda ham faol rol o'ynamoqda. O'z navbatida, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ACEAN) asoschilaridan biri sifatida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Toshkentda bo'lajak oliy darajadagi muloqot "Markaziy Osiyo — ACEAN" formatida yangi hamkorlik platformasini yaratishga imkon beradi.**

Tashrif doirasida, shuningdek, qator ikki tomonlama hukumatlararo hujjatlar, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy shartnomalar imzolanishi kutilmoqda. Bugungi kunda xalqaro diplomatiya va turizm markazi sifatida shuhrat qozongan qadimiy Samarqand shahri navbatdagi O'zbekiston — Malayziya biznes-forumiga mezbonlik qiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha "Malayziya Madani" konsepsiyasi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bilan hamohang ekani ramziy ma'noga ega. Bu ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ijobiy tajriba almashish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, balki butun mintaqa va xorijiy hamkorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi formatlarini shakllantirishda ham faol rol o'ynamoqda. O'z navbatida, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ACEAN) asoschilaridan biri sifatida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Toshkentda bo'lajak oliy darajadagi muloqot "Markaziy Osiyo — ACEAN" formatida yangi hamkorlik platformasini yaratishga imkon beradi.

Shubhasiz, Malayziya Bosh vazirining rasmiy tashrifi ko'p asrlik do'stlik, o'zaro ishonch va anglashuvning mustahkam poydevoriga asoslangan O'zbekiston — Malayziya hamkorligini siyosat, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'lim, innovatsiyalar, madaniyat va xalq diplomatiyasi sohalarida sezilarli darajada faollashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tashrif davomida Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim boshchiligidagi delegatsiya yurtimizning Samarqand va Buxoro kabi dunyoga mashhur tarixiy shaharlarining diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishadi.

"Dunyo" AA
Kuala-Lumpur

Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Adolat sog‘inchi va Uyg‘onish ramzi

O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi o‘ziga xos san’at va madaniyat bayramiga aylandi

Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Shunday tahlikali sharoitda millatlar, davlatlar qanday yo‘l tutmog‘i kerak? O‘zlikni asrash, milliy davlatchilik an’analarini zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtirish, o‘zaro bog‘liqlikda taraqqiy etish, do‘stlik saltanatini tuzishda qay yo‘lni tanlamoq zarur, degan savollar bir necha yillardan buyon yondaftarchamizdan o‘chmayapti — biri to‘lsa, ikkinchisiga yozilyapti.

Har bir tashabbusda hikmat borligi, undagi fikriy qudrat mujassamlashuvi haqida bejiz aytmadik. Gap shundaki, yangi O‘zbekistondagi islohotlar, davlatimiz rahbarining dunyo minbarlaridagi bashariyat hayotiga daxldor fikrlari, tashabbuslari, chorlovlari mazmunida yuqoridagi savollarga javob bor, aslida.

Toshkentda milliy estrada san’atimiz asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi ham butun xalqimizni, ta’bir joiz bo‘lsa, uning sohir ovozidan hayratga tushgan dunyo ahlini ma’naviy birdamlikka chorlov mujdasidir.

Bu aslo mubolag‘a emas. Boisi, bugun dunyoni axborot kuchi egallab oldi, shu kuch boshqaruv qudrati kasb etmoqda. Shunday ekan, oldimizda axborot tizginini tutish, uni ezgu maqsadlar sari ruhlantirish, milliy kontentni yaratish vazifasi turadi.

Balki kimdir aytar: Botir Zokirov va u yaratib ketgan san’at bizga o‘tgan asrdan boqib turgan bo‘lsa, hozirgi axborot tizgini bunda-yu, o‘zbek estradasi asoschisi qayda?

Javobimiz budir: **Botir Zokirovning qo‘shiqlarida, she’rlarida, hikoyalarida, xotira bitiklarida, chizgan suratlarida hech eskirmas, hech tinmas axborot bor.**

Mana ulardan biri: ***“Ertalabdan xush-xabarlar: rentgen yaxshi, ukollar boshqa qilinmaydi. Har qalay va’da berishdi-ku! Sayr qilish mumkin. Toza havoda. Faqat qirq minut. O, ba’zan nimadan oziqlanayotganimizni unutib qo‘yamiz. Axir bahorning iliq, salqin tabiiy havosini xonadagi kislorodga almashtirish mumkinmi? Nafas olish qanday baxt!..”.***

Ezgu niyatli, shukronalik hissi bilan yashayotgan insonlar aytadigan gap, shunday emasmi?!

Bugun biz o‘zimizni xursand qilish haqida o‘ylaymiz. Chiroyli, ozoda kiyingimiz, oilamiz, do‘stlar bilan tansiq taomlar yegimiz, dunyoni sayr etgimiz, tog‘u dashtlarda dam olgimiz keladi. Ammo hamma joyda ham shunday emas. Urush qutqusi kezib yurgan mamlakatlar, ellar, elatlar qancha? Ular joni omon bo‘lishi haqida qayg‘uradi, o‘zi, farzandlari qorni to‘ygan kuniga shukrona aytadi.

Ma’lumimiz bo‘lishicha, Botir Zokirovning ilk qo‘shig‘i Vatanga muhabbat haqida edi. Shundan kelib chiqib, hech bir tashabbusning bejiz emasligi, axborot siyosati boshqarayotgan dunyodagi hamjihatlik ruhi haqidagi fikrlarimizga dastlabki xulosani bersak:

— Botir Zokirov san’atining o‘lmas axborot manbai — Vatanga mehr qo‘yish, har ishda sadoqatli va fidoyi bo‘lish, insonlarga mehr-muhabbat ulashish, bu dunyoda shukronalik bilan yashab o‘tish. Demak, buyuk ajdodimizning kuni kecha Toshkentda ochilgan haykali mana shu adolatning tiklanishi zamiridagi bor hayot haqiqatlarini so‘zlab turadi.

IJODIY FENOMEN VA RAMZLAR

— Bu haykal Botir Zokirov xotirasiga o‘rnatilgan ramziy bir timsoldir. Ayni paytda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atni ravnaq toptirish yo‘lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug‘ ijodkorga eng munosib yodgorlik bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Maqolamiz avvalida **adolat sog‘inchi** haqida aytdik. Insoniyat va milliy davlatchiliklar tarixida adolat sog‘inchi jamiyat orzusiga aylangan davrlar ko‘p bo‘lgan. Jumladan, bizda ham.

Keyingi yillarda xalqimizning shu sog‘inchlari, orzulari ushalmoqda. Tarixiy adolat tiklanib, ulug‘ ajdodlarimizning pok ruhiga hurmat-ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Ularning boy ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy merosini tiklash va o‘rganishga bel bog‘ladik. Ota-bobolarimiz zakosi qanchalar buyukligini anglay boshlayapmiz. **Bu — Uyg‘onish ramzi.**

Prezidentimiz aytgan Botir Zokirov xotirasiga o‘rnatilgan haykalning ramziy timsoliga keladigan bo‘lsak, yanada xayrli bir holni anglaymiz. Bu haqda gapirishdan oldan Botir Zokirov fenomeniga to‘xtalish kerak bo‘ladi.

U Navoiyni ko‘p o‘qir edi. Navoiy dahosiga hurmati cheksiz bo‘lgan. “Layli va Majnun” dostonidan aytgan “Majnun” monologini bir eslang. Yoki boshqa qo‘shiqlarini, hech bo‘lmasa, shifoxonada yozgan mana bu xotirasini o‘qing: ***“Kuni bo‘yi Eduardas Mejelaytisning “Inson” kitobini o‘qidim. Kitob yaxshi bezalgan. Krasauskasning gravyuralari tabiiy. Poemadagi ko‘p fikrlar mening dardlarimga hamohang. O‘zim ochgan dunyoni “ko‘rib”, o‘zim uyalib ketdim, Mejelaytis menga ruh bag‘ishladi. Nega endi o‘zimdan o‘zim uyalishim kerak?..”.***

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Botir Zokirov tafakkuri keng, o‘z milliy dunyosiga ega shaxs bo‘lgan. Shu bois, bugun Prezidentimiz bu buyuk inson xotirasiga alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatmoqda, uning boy va o‘lmas ma’naviy merosini tiklashga kirishildi.

Botir Zokirov vafotidan rosa 35 yil o‘tib, tarixiy adolat tiklandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 2-dekabrdagi qarori bilan 2021-yilda Botir Zokirovning 85-yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi. Ulug‘ hofiz nomidagi milliy mukofot ta’sis etildi. U haqda ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratildi. Bu yil esa Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan atoqli san’atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o‘tkazildi.

Botir Zokirov tahsil olgan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan ko‘chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ushbu konservatoriya huzurida Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti barpo etildi.

Albatta, bu xayrli ishlardan xalqimiz yaxshi xabardor. Biz qayta aytayotganimiz boisi esa ular zamiridagi hayotiy hikmatlarni bir nuqtaga jamlash, xolos. Ya’nikim, keyingi yillarda buyuk ajdodlarimiz xotirasi qalblarimizga muhrlanmoqda. Qahramon arboblarimiz, olim-u ulamolarimiz bilan bog‘liq tarixiy haqiqatlar ko‘z ochmoqda. Buning zamiridagi hayotiy maqsadni har birimiz, ayniqsa, yoshlarimiz teran anglab yetishi kerak.

Gap shundaki, bu kabi sa’y-harakatlardan maqsad fozil ajdodlarimiz hayotini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish, pirovardida biz intilayotgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdir. **Bu — Uyg‘oqlik ramzi.**

Shu o‘rinda Prezidentimizning yuqorida keltirilgan mana bu gapiga yana bir bor e’tibor qaratmoqchimiz: *“Ayni paytda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atni ravnaq toptirish yo‘lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug‘ ijodkorga eng munosib yodgorlik bo‘ladi”*. Demak, biz, avvalo, shu maqsadlar uchun munosiblik yo‘lidan borishimiz kerak. Toki **bu — Quvvat ramzi** sifatida tarixda qolsin.

ARBOB VA JADID EDI

Arbobligi shundaki, Botir Zokirov o‘zbek estrada san’atiga asos soldi, kuy va qo‘shiqlarini akademik mahorat bilan kuyladi. Shu tariqa maqom va xalq og‘zaki ijodini yangi o‘zanga burdi — o‘z zamondoshlari qalbiga singdirib ketdi.

Darvoqe, Botir Zokirovni xotirlaganda maqom va folklor quvvati haqida ham aytmasak bo‘lmaydi. Bunga sal keyinroq to‘xtalamiz.

Botir Zokirovni jadid bobolarimiz safiga qo‘shish uchun ham haqlimiz. Uning millat kelajagi uchun qayg‘urib aytgan mana bu fikrini bir eslaylik: ***“O‘zimiz o‘zligimiz ildizini qirqsak, madaniyat va san’atimizni oyoqosti qilsak, g‘ururimizni bema’nilarcha toptasak, iste’dod boshida byurokratlarcha qilich yalang‘ochlab tursak, qachon xalq bo‘lamiz? Qachon qad rostlaymiz? Qachon?..”.***

Bugun ma’naviy taraqqiyot haqida ko‘p gapiryapmiz. Siyosiy tutumlarning o‘zgarayotgani, tahlika ummonida yashamoq shartlari haqida o‘ylayapmiz, qayg‘uryapmiz. Shunday bir davrda har birimiz o‘zimizni qayta-qayta so‘roqqa tutmog‘imiz talabi paydo bo‘laveradi: qachon xalq bo‘lamiz, qachon qad rostlaymiz? Bu hech unutib bo‘lmas, o‘zimizni har doim, har on taftish qilmoq uchun eng to‘g‘ri yo‘ldir.

> **Xalqqa xizmat qilmoq uchun**
> **Ovozim ham, o‘zim ham yarayman hali,**
> **Kuylamoq bu — men uchun**
> **yashamoq, demak!**
> **Biroq boshqalarning ilhomi ila**
> **Ko‘ngilxushlik qilmoq menga kerakmas!**
> **Izlamoq va yaratmoq istayman bu kun**
> **O‘z san’atimni!..**
>
> **Botir ZOKIROV,**
> **O‘zbekiston xalq artisti**

Bizga qismat yo‘li — sinovdir. Ne tongki, oldimizda katta sinovlar bor. Xalqimiz bugun va ertaga ham yaxshi yashashi yo‘lidagi katta zahmat cheki bizning gardanimizga tushib turibdi. Shunday ekan, bu yo‘lda Botir Zokirovning jadidona ruhda aytgan ushbu da’vati zamiridagi haqiqat yo‘li har doim bizga yo‘ldosh bo‘lishi kerak.

XALQIMIZ NEGA UNI SEVIB YASHAMOQDA?

Botir Zokirovda majnunlik orzusi bo‘lgani haqida bilamiz. Bir so‘z bilan aytganda, uning nomi — Botir, qalbi — Majnun edi.

Har ikkisida ham taqdir bitiklari yozilgan bu insonning botirligi, avvalo, san’at yo‘lidagi qahramonligida aks etadi.

Ha, biz Botir Zokirovni milliy san’atimizni dunyoga tanitgan chinakam qahramon, deb aytgimiz keladi. U san’at uchun hayotini bag‘ishladi. O‘zini, sog‘lig‘ini o‘ylamadi, umrining so‘nggi nafasigacha kuyladi, baralla kuyladi. Dunyo san’at saroylarini zabt etdi, insonlar qalbi uning ovozi bilan junbishga keldi.

“Sharq tarixini o‘qiyapman. Juda ko‘p narsalarni bilmasligim ayon bo‘ldi. O‘z tariximizni g‘ururlanib, faxrlanib o‘qib-o‘rganishni boshladim. Qancha-qancha ochilmagan tengsiz xazinalar. O‘z madaniyatimizni hali juda yuksaklarga ko‘tarishimiz kerak. Albatta, ko‘tarish kerak! Qanday qilib? Hamma gap shunda.

Yana ko‘p narsalar haqida fikr-mulohazalar yuritishga hali imkoniyatim bor.

Bir narsani angladim. Shu paytgacha olgan bilimlarim hech narsaga arzimas ekan. Hammasini imkon qadar qaytadan boshlash kerak”, deya yashadi, shunga intildi va umri yetgunicha uddaladi.

Yuqorida umummillat o‘ylari, mushtarak sog‘inchlarni tilga olib, vujudiy hissiyot birligi haqida so‘z ochganimiz tasodif emas edi. Zero, bizning boy ma’naviy merosimiz bir butun vujud kasb etadi.

Gapimiz isboti sifatida maqom va baxshichilik san’atini olaylik. **Maqomni ham, baxshi aytimlarini ham qalbi pok va niyati ezgu inson eshitadi.** Nega shunday, deysizmi?

Xalqimiz azal-azaldan samimiylik, tabiiylikni sevib yashagan. Jaydarilik, to‘g‘riso‘zlik bizga otameros. Bu tug‘ma mohiyat hosilasi sifatida xalq og‘zaki ijodi — dostonlar, kuy-qo‘shiqlar, maqom san’ati yaralgan. Shu-shu maqomu dostonlar bizning vujudimizga aylangan.

Unutilmas Botir Zokirovda ana shu ohang falsafasi, o‘zligimizning o‘lmas axboroti bor edi. Mana shu o‘zlik kuyi uzoq yillardan buyon “changlanib” kelmoqda. Bugun ham bu qutlug‘ an’ana bardavomligi bizning boyligimiz, borlig‘imizdir. Shu bois, xalqimiz Botir Zokirovni sevib eshitadi, eshitaveradi.

Darvoqe, u kishining majnunligi haqida. Majnunligi hayotga muhabbat, insonlarda samimiylik va hamjihatlik mehrini, vatanparvarlik hissini singdirib ketdi. Majnunligi bilan xalqimiz orzularini kuylab o‘tdi.

Hozir shular haqida o‘ylar ekanmiz, bizning qanday buyuk tariximiz borligi, qanday ulug‘ ajdodlarimiz yashab o‘tgani va ularning dunyoni uyg‘otuvchi boy ilmiy-ma’naviy merosi davomchilari ekanimizni o‘ylab, qalbimiz faxrga to‘lishi shubhasiz.

BUYUKLIK TAFTI

Poytaxtimizda Botir Zokirov haykali ochilishi marosimi o‘ziga xos yaxlit kompozitsiya kasb etdi. Prezidentimiz O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti faoliyati, Kinochilar saroyidagi O‘zbekiston kino san’ati muzeyi hamda “Tirik tarix” loyihasi taqdimoti bilan tanishdi. O‘qituvchi va talabalar, rejissyor va aktyorlar, kinoshunoslar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

Jumladan, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutidagi muloqot chog‘ida yoshlarga qarata **“Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san’atsevar yoshlarimizni tabriklayman. Biz bu ishlarni nima uchun qilyapmiz? San’atimizning buyuk merosini, yoshlarimizning nimalarga qodirligini dunyoga tarannum etish uchun. Institutga milliy san’atimizda fenomen bo‘lgan Botir Zokirov nomini berganimiz ham bejiz emas. Bu yerda uning munosib izdoshlarini tarbiyalashni, iste’dodini yuzaga chiqarishni maqsad qilganmiz”,** dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, Botir Zokirov fenomeni barchamizga, yoshlarimizga ibrat namunasidir. Unga munosib izdoshlarni tarbiyalash maqsadimiz zamirida ham juda katta marralar borligini har birimiz, ayniqsa, yoshlarimiz chuqur tahlil qilib, bu haqiqatni ongiga singdirib olish fursati kelgan.

Biz Uchinchi Renessans yo‘lidamiz. Uning bunyodkorlari esa, hech shubhasiz, bugungi yoshlarimiz bo‘ladi. Shu bois, ularga katta yo‘llar ochilmoqda, barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Maqom va baxshichilik san’atimizni poklik, samimiylik va ko‘ngil obodligiga mengzadik. Uning o‘qildizlari vujudimizda tobora mustahkamlanishi yo‘lida yana bir mulohaza.

Botir Zokirov ijodi, uning hayot yo‘li, matonati, sabru bardoshi, jasorati, xullas, biz hali bilgan-bilmagan ma’naviy chizgilari har birimiz uchun katta hayot maktabi bo‘lishi kerak. Chunki har bir millatning, har bir davrning o‘z qahramonlari, fenomenlari bo‘ladi. Ular millatni millat, elni el sifatida tanituvchi **BAXT** sanaladi. Botir Zokirov ham ana shunday shaxslardan biri edi.

O‘sha baxt bizni tark etgan emas. Aksincha, bugun tobora cho‘g‘lanmoqda, shukuhlanmoqda. Kelajakda buyuklik taftini taratgusidir.

Odamlar yillar davomida ariqdan suv tashib, idishlarda tindirib ichishga majbur bo‘lgan. Hatto ellik yil bir joyda yashab, uyiga suv tarmog‘i tortilmaganlar ham bor. Endi esa aholining suv tashish uchun chelak ko‘tarib, sarson bo‘lishiga zarurat qolmadi, xonadonidagi jo‘mrakni burashi kifoya.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 17-may, 95-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BUGUNNING GAPI

SUV RESURSLARINI TEJAYLIK

CHIROYLI GAP VA TARG‘IBOTNING O‘ZI YETARLI EMAS

Tahlillarga ko‘ra, tomchilab turgan jo‘mrakdan bir kecha-kunduzda 75 LITRGACHA SUV BEHUDA OQIB KETADI. ATIGI 12 TA IDISH YUVISH UCHUN ESA 80-90 LITR SUV talab qilinadi. Kun davomidagi boshqa ehtiyojlarimizga bir necha o‘n litrlab suv sarflaymiz. Ammo bir kun suv o‘chib qolgudek bo‘lsa, zaxiradagi har tomchi suvni tejab ishlatamiz. Bu SUV HAM TUGAB QOLSA-KU, DUNYO KO‘ZIMIZGA TOR BO‘LIB KETADI.

Nima uchundir tejamkorlikka o‘tishimiz uchun o‘sha ne’mat tamom bo‘lishi, kerak vaqtda topilmay qolishini kutamiz. Yoki suv hech qachon tugamaydigandek tutamiz o‘zimizni. Biz yer qa’ridan beminnat chiqib kelaveradi deb hisoblagan suv zaxirasi tobora kamaymoqda. Sayyoramizda 2 milliardga yaqin kishi toza suv ichish imkoniyatidan mahrum. 17 mamlakatda suv tanqisligi allaqachon eng yuqori darajaga yetgan. Bir vaqtlar neft va uglevodorod zaxirasiga ega davlatlar jahon siyosiy “atmosfera”sini belgilagan bo‘lsa, hozirgi rivojlanish tendensiyasi undan ham muhim resurs borligini ko‘rsatmoqda. Bu o‘rnini hech narsa bosolmaydigan ichimlik suv manbalaridir.

Mamlakatimizda aholining ichimlik suv bilan ta’minlanganlik holati qanday? Sohada qilinayotgan ishlar, yirik loyihalar qanchalik natija beryapti? Yurtimizda suv yetib bormagan hududlar ham bormi? Shu kabi savollar bilan “O‘zsuvta’minot” AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi Dilshod AZIMOVga yuzlandik.

— Suv bo‘lmagan joyda hayot ham, tiriklik ham bo‘lmaydi. Ammo toza ichimlik suv bormaydigan yoki yetkazib berish imkonsiz hududlar — boshqa masala. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda suv yetib bormagan joyning

o‘zi yo‘q. Faqat ichimlik suv markazlashgan holda ta’minlanmagan hududlar bor. Bunday hududlar aholisi suvni muqobil manbalar, xususan, buloq, quduq, soylardan olib iste’mol qiladi. Qolaversa, ayni paytda markazlashgan ichimlik suv ta’minotiga ega bo‘lmagan joylarda yashovchi 2,8 million kishiga maxsus suv tashish texnikasida yetkazib berilmoqda. Bu, albatta, toza ichimlik suv ta’minoti sohasida qilinadigan ishlar hali ko‘pligidan dalolat, — deydi D.Azimov. — Masalaning boshqa tomoni ham bor. Yurtimizda ichimlik suvning 60 foizi yer osti, 40 foizi yer usti suv manbalaridan olinadi. Ularni tozalab, aholiga yetkazish doim dolzarb masalalardan bo‘lgan. Ammo ayrim hududlarga markazlashgan ichimlik suv tarmog‘ini yetkazishning geografik jihatdan imkoni yo‘q. Shu bois, markazlashgan suv tarmog‘i yo‘q mahallalardagi imkoniyatlar o‘rganilib, ishni uch yo‘nalishda tashkil etish belgilangan. Jumladan, infratuzilmaga yaqin mahallalarga markazlashgan tarmoq tortish, yer osti suvi toza va yaqin joylarda quduq qazib, suv inshooti qurish, quduq qazish hamda quvur tortish imkoni bo‘lmagan qishloqlarda katta sig‘imli hovuzlar barpo etish ishlari bajariladi.

Kamchiliklarga qaramay, oldimizda turgan asosiy vazifa aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini 100 foizga yetkazishdan iborat. Bu bosqichma-bosqich bajariladigan ish. Ayni vaqtda bu bo‘yicha ko‘rsatkich 77,2 foizni tashkil etyapti. Yetti yil oldingi holat bilan solishtirganda salkam 14 foiz o‘sish kuzatildi. Bu eng yuqori natija bo‘lmasada, sohadagi ishlar, ajratilayotgan mablag‘ salmog‘i yildan yilga ortib, avvalgiga nisbatan 5-6 barobar ko‘paygani seziladi. Birgina 2023-yilda ushbu yo‘nalishdagi ishlar uchun budjetdan 5,4 trillion so‘m ajratilgan. Buning hisobiga 2 ming 598 ta obyektga 11 ming 207 kilometr ichimlik va 593 kilometr oqova suv tarmog‘i tortilib, 1 ming 740 ta ichimlik va oqova suv inshooti qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. Natijada 2 mingdan ortiq mahalladagi 1,1 million kishi xonadoniga ilk bor toza ichimlik suv kirib bordi, 2,5 million odamning ta’minoti yaxshilandi.

Joriy yilda yurtimiz aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini 81 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu, albatta, qo‘shimcha mablag‘, yangi loyihalarni talab etadi. Rejada ko‘plab investitsiya loyihalari bor. Jumladan, Investitsiya dasturiga ko‘ra, budjetning 1,3 trillion so‘m mablag‘i hisobiga 1,3 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog‘i tortiladi hamda 75 ta inshootda qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi. Ichimlik suv qamrovi darajasi past bo‘lgan 30 ta tumanda 459 kilometr tarmoq tortiladi hamda 24 ta ichimlik va oqova suv inshooti quriladi. Belgilangan loyihalar yil boshidan buyon birin-ketin amalga oshirib kelinyapti. Bunda e’tibor nafaqat suv ta’minoti, balki ichimlik suv sifati va sanitariya-gigiyena sharoitini yaxshilashga ham qaratilgan. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini takomillashtirishga doir vazifalar belgilangan.

O‘rganishlar asnosida suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan 813 mahalla aniqlangan. Joriy yilda davlat budjeti hisobidan 83 ta mahalla va qator aholi punktlarida suv ta’minoti va kanalizatsiya bo‘yicha 76 loyiha amalga oshiriladi. Ularning umumiy qiymati 6,8 trillion so‘m bo‘lib, loyihalarning 67 tasini shu yil oxirigacha yetkazishni rejalashtirganmiz.

Sohaga ko‘proq investitsiya jalb etish nafaqat moliyaviy, balki xalqaro tajriba, yangi loyihalar, innovatsion texnologiyalar kirib kelishi jihatidan ham ijobiy ahamiyatga ega. Jarayonda xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalari ulushi va ahamiyati, ayniqsa, yuqori. Hozir bu borada 10 dan ortiq xalqaro tashkilot, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki, Fransiya taraqqiyot agentligi, Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi kabi tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatilgan. Hamkorlik qamrovi kengaygani sari sohada jalb etilayotgan investitsiya hajmi ham yil sayin oshyapti. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki 25 yilida sohada jami 892 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, so‘nggi besh yilda bu miqdor 700 million dollardan ziyodni tashkil etmoqda.

Ayni vaqtda qiymati 2,4 milliard dollarlik 25 loyihani amalga oshirish ishlari davom etmoqda. Ular orasida Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikdagi “Jizzax shahar oqova suv tizimini rekonstruksiya qilish”, Islom taraqqiyot banki ishtirokidagi “Sirdaryo viloyati Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlarining kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish va kengaytirish”, Saudiya taraqqiyot va OPEK jamg‘armalari mablag‘i hisobidan “Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumani ichimlik suv ta’minotini yaxshilash” kabi yirik loyihalar ko‘p. Asosiysi, har bir loyihadan aniq maqsad ko‘zlangan. Xususan, yil yakuniga ko‘ra 82 ta MFYda ichimlik suv ta’minoti hamda 26 ta MFYda oqova suv xizmati yaxshilanadi.

Hozir shunday loyihalar amalga oshirilmayotgan hududlar yo‘q hisobi. Toshkent viloyati misolida olsak, o‘tgan yili budjetdan ajratilgan 851,2 milliard so‘m hisobidan 492 obyektda jami 1878 kilometr tarmoq tortilgan, 238 ta inshoot qurilib, 221 ta obyekt foydalanishga topshirildi. Hududning markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 72,8 foizdan 79,4 foizga yetkazildi. 163 mahalladagi 214 ming kishi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlandi. Toshkent tumanida Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi loyiha shulardan biri. Loyihaning ilk bosqichida 3 ta suv taqsimlash inshooti ishga tushirilib, tumanning 26 mahallasi, 214 ko‘chasiga ichimlik suv tarmog‘i tortildi. Shu bilan tuman aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 78,9 foizdan 92 foizga yetdi. Hududdagi 152 xonadon ilk bor suv ta’minotiga ega bo‘ldi. Loyihaga kiritilgan mahallalar aholisi avval quduqlardan suv olgan va jadval asosida ta’minlab kelingan. Odamlar yillar davomida ariqdan suv tashib, idishlarda tindirib ichishga majbur bo‘lgan. Hatto ellik yil bir joyda yashab, uyiga suv tarmog‘i tortilmaganlar ham bor. Endi esa aholining suv tashish uchun chelak ko‘tarib, sarson bo‘lishiga zarurat qolmadi, xonadonidagi jo‘mrakni burashi kifoya.

— O‘tgan yildan mamlakatimizda suv narxining oshirilishi tejamkorlikka qaratilgan yechimlardan biri bo‘ldi. Ammo tariflar hududlarda turlicha ekani qiziq. Bu nima bilan bog‘liq?

— Sayyoramizda havo va suvdan qimmatli

ne’mat yo‘q. Ularning qiymatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Insoniyat o‘z ta’siri orqali ana shu ne’matning kamayib borishi, taqchilligiga sabab bo‘lyapti. Suv zaxiralarining yo‘qolib borishi Yer yuzi uchun juda katta fojia ekanini tushunish qiyin emas. Bu haqda olimlar yillar davomida gapirib, bong urib kelgan bo‘lsa,

bugunga kelib, insoniyat bevosita muammoga duch keldi va shu muammo bilan yashayapti.

Sayyoramizning uchdan ikki qismi suvdan iborat bo‘lishiga qaramay, atigi 3 foizini chuchuk suv tashkil etadi. Tahlillarga ko‘ra, 1960-yillardan buyon Yer yuzida suvga talab ikki barobar ko‘paygan. Bu aholi soni ortishi, qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishi kabi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Suv tanqisligi oziq-ovqat xavfsizligiga sezilarli tahdid solmoqda. Yaqin yillarda yanada jiddiy fojialarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, insoniyatning chuchuk suv resurslaridan foydalanish sur’ati shu tarzda davom etsa, 2100-yillarga borib, zaxira tugaydi.

Bir qarashda bu gaplar shunchaki vahimadek tuyuladi. Bir necha o‘n yil oldin shunday fikrlashimiz ham mumkin edi. Ammo bugungi global vaziyat har qanday sharoitga tayyor turishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda. Oldimizda turgan eng katta vazifa esa tabiiy resurslardan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, muqobil manbalarni yaratish bo‘lib turibdi. Bunday sharoitda keskin choralar ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Chunki ko‘plab davlatlar qatori bizda ham suv tanqisligi xavfi yuqori.

Yurtimizda jami 11 ming 63 ta suv olish inshooti mavjud. Ichimlik suvning asosiy zaxiralari esa Amudaryo va Sirdaryo hamda unga tutash yer osti chuchuk suv manbalaridir. Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan suvning 87 foizi qishloq xo‘jaligi, 9 foizi energetika va baliqchilik, qolgan 4 foizigina ichimlik uchun sarflanadi. Shunday sharoitda suvga nisbatan eng arzon tovarlardan biri sifatida qarash chinakam fojia.

Suv narxini oshirishdan maqsad odamlarni tejamkorlikka o‘rgatishdangina iborat emas. Bir qator omillar, jumladan, markazlashgan ichimlik suv tannarxi va undan foydalanish uchun belgilangan suv tarifi orasidagi tafovut kattalashgani, narxga nisbatan ishlab chiqarish xarajati bunday yo‘l tutishga undadi. Gap shundaki, iste’molchilarga toza ichimlik suv yetkazib berish hamda oqova suvni chiqarib yuborish bir qancha bosqichni, minglab xodimlar mehnatini talab etadi. Biz har kuni iste’mol qiladigan ichimlik suv bir necha tozalash bosqichidan o‘tmaguniga qadar xonadonlarga yo‘naltirilmaydi. Buning belgilangan talab va me’yorlari bor. Avvalo, suv havzalari va boshqa manbalardan olinadigan suv tozalash uchun inshootga kelib tushadi. U yerdagi maxsus idishlarda suvga zarur reagentlar bilan ishlov berilib, tindiriladi. Mayda zarrachalar suv tagiga cho‘kkach, rangsizlantiriladi. So‘ng birin-ketin zararsizlantirish, yumshatish, chuchuklashtirish va tiniqlashtirish jarayonidan o‘tkaziladi. Ana shu murakkab bosqichlardan keyingina nasoslar yordamida tarmoqqa yuboriladi.

Markazlashtirilgan ta’minot tizimidagi suv sifati yuqori oqimdan to iste’molchi uyidagi jo‘mraklargacha harakati davomida kechayu kunduz nazorat qilinadi. Ushbu nazorat suvning maqbul organoleptik, kimyoviy va mikrobiologik xususiyatlarini baholashga imkon beradigan turli tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bularning har biri xarajat talab qiladi.

O‘tgan yilgi tahlillarga ko‘ra, yurtimiz bo‘yicha o‘rtacha 1 kub metr ichimlik suv ishlab chiqarish uchun 1312 so‘m, 1 kub metr oqova suv tozalash uchun 753 so‘m sarflangan. Tariflar esa 3 yildan buyon o‘zgarmay kelayotgani natijasida o‘rta hisobda 40 foiz oshgan tannarx xarajati hisobidan 960 milliard so‘m qoplanmay qolgan. Bu qo‘shimcha qarz xarajatini keltirib chiqaradi, degani. Bundan tashqari, oxirgi uch yilda iste’molchilar soni 808 mingga oshgan. Demak, ularga ichimlik suv yetkazib berish yanada ko‘proq mehnat va xarajat talab etadi. Masalan, suv uzoq masofaga juda katta elektr energiyasi talab etuvchi nasoslar yordamida yetkaziladi. Bu ham katta chiqim. Qolaversa, tizimda yuzaga keladigan avariya holatlarini bartaraf etish, tarmoqlarni joriy va mukammal ta’mirlash xarajati bor.

Ichimlik suv ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajati farqlanishi tufayli tariflar har bir viloyatda turlicha etib belgilangan. Misol uchun, Toshkent shahriga ichimlik suv Bo‘zsuv kanali orqali, Andijon viloyatiga esa Kampirovot suv omboridan yer sathi farqi hisobiga o‘zi oqar tarzida yetkazib beriladi. Navoiydagi iste’molchilarning 70 foizdan ortig‘i Samarqand viloyatidagi suv inshootidan tortilgan quvur orqali ichimlik suv bilan ta’minlanadi. Buning natijasida elektr energiyasi kamida 2 barobar ko‘p sarflanadi. Shundan ko‘rinadiki, barcha hududda ichimlik va oqova suv tarifi qayta ko‘rib chiqildi. Ayni paytda yurtimiz bo‘ylab 1 kub metr ichimlik suvni yetkazib berish narxi o‘rtacha 2300 so‘mni, 1 kub metr oqova suv xizmati ko‘rsatish esa o‘rtacha 1300 so‘mni tashkil etmoqda. Masalan, Toshkent shahrida ichimlik suv yetkazib berish uchun yer usti suvidan foydalanilgani va iste’molchilar zich joylashgani sababli 1 kub metr ichimlik suv narxi 1400 so‘mni tashkil etsa, Jizzax viloyatida ichimlik suv bir nechta suv ko‘tarish inshooti orqali yetkazib berilishi hisobiga 1 kub metr uchun 4 ming so‘m narx belgilangan.

Umuman, ichimlik va oqova suv xizmati uchun tariflarni shakllantirish, tasdiqlash hamda amalga kiritish ishlari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq bajariladi. Mazkur qonunga asosan, suv ta’minoti korxonalari shakllantirgan takliflar jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilib, olingan xulosalar asosida tasdiqlanadi.

— Kunlar isishi bilan hovlida yashaydiganlar ichimlik suvdan mashina yuvish, o‘simlik sug‘orish, yerni salqinlatish va boshqa maqsadda foydalanib, uvol qiladi. Suvni behuda isrof qilganlar uchun qonunchiligimizda qanday choralar belgilangan?

— Suvni isrof qilish holatining oldini olish qonunchiligimizda ham nazarda tutilgan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida

ichimlik suvni sug‘orish va boshqa maqsadlarda ishlatish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug‘orish maqsadida foydalanishga bir qator istisnoli holatlardagina yo‘l qo‘yiladi. Rasmiy ruxsatsiz yoki ko‘rsatilgan vaqtdan tashqari sug‘orilgan holatlarda bir oy foydalanilgan suv uchun to‘lov — aholi iste’molchilari uchun suv sepish va sug‘orish maydonining har 1 kvadrat metri uchun 15 litrdan hisob-kitob qilinadi.

Tahlillarga ko‘ra, ichimlik suvni isrof qilish holatlari, asosan, hisoblagich o‘rnatilmagan iste’molchilar hissasiga to‘g‘ri keladi. Qonunchilikka ko‘ra, suvni hisobga olish uskunasi mavjud bo‘lmagan holatlarda suv ta’minoti xizmati uchun aholi iste’molchilariga belgilangan tariflarga 1,5 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo‘llash yo‘li bilan hisob-kitob qilinadi. Shunday holatlarning oldini olish uchun ham aholi xonadonlarini to‘liq elektron hisoblagichlar bilan ta’minlash belgilangan. 2021-yilda bu ko‘rsatkich 52 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bugun 77,2 foizga yetdi.

Ammo bu kabi chora-tadbirlar hamda tariflarning oshirilishi ham ayrimlarni suv tejamkorligiga o‘rgata olmayotgani achinarli. Vaholanki, biz suvni qimmatga sotib olayotganimiz uchun emas, balki bebaho ne’mat bo‘lgani, dunyoda millionlab odam unga zor ekani uchun ham tejab ishlatishga mas’ulmiz. Buning uchun xalqimizning iste’mol madaniyatini oshirish, har birimiz oddiy kundalik me’yorlarga rioya qilishimiz lozim. Masalan, suv tomchilayotgan jo‘mrak, maishiy texnika yoki purkagichlarni o‘z vaqtida tuzataylik. Chunki oqayotgan tomchi vaqt o‘tishi bilan katta yo‘qotishga aylanadi. Tish yuvayotganda ham jo‘mrakni yopib, bir stakan suvdan foydalanish kifoya. AQSH atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, shu oddiy sa’y-harakat bir oyda 700 litr suvni tejash imkonini beradi. Bu raqam so‘mga chaqilsa, qancha mablag‘ tejash mumkinligi ham oydinlashadi. Kir, idish-tovoq va boshqalarni yuvishda ham shunday tejamkorlik zarar qilmaydi. Zamonaviy o‘lchov uskunalaridan foydalanish suv, elektr energiyasi tejamkorligida katta ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar sarf-xarajatni aniq nazorat qilib, tejamkorlikni bir necha barobar oshiradi. Shu bois, joriy yilda sohani raqamlashtirish orqali suv sarfini tartibga solish, mavjud tarmoqlarning raqamli xaritasini yaratish hamda “SCADA” tizimini joriy etish maqsadida Osiyo taraqqiyot bankining 125 million dollar mablag‘ini jalb qilish ko‘zda tutilgan. Sohada energiya sarfini kamaytirish orqali tannarxni qisqartirish va moddiy-texnik bazani yaxshilash uchun 426 ta nasos energiyatejamkor nasoslarga almashtiriladi, 66 megavattli quyosh panellari o‘rnatiladi.

Joriy yilda raqamlashtirish yo‘nalishida yana 3 ta yangi loyiha amalga oshirilmoqda. Ularning 2 tasi Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida joriy etiladi. Birinchisi, “Avtomatlashtirilgan ombor tizimi” (EWM) bo‘lib, unda korxonaning operatsion samaradorligi va shaffofligiga erishish uchun biznes tizimlarini integratsiyalash va optimallashtirish nazarda tutilgan. Ikkinchi loyiha “WaterData” yagona ma’lumotlar bazasini yaratishdan iborat. Bunda suv ta’minoti sohasidagi barcha tahliliy ma’lumotning elektron bazasi shakllantiriladi.

Uchinchi loyihaga ko‘ra esa Yagona dispetcherlik markazi tashkil etiladi. Dispetcherlik xizmatini raqamlashtirish orqali yuqoridagi barcha loyihalar integratsiyalashadi. Ya’ni maxsus avtotransport va avariya brigadalari uchun yo‘nalishlarni optimallashtirish, murojaatlarni monitoring qilish, suv bosimi, elektr energiya sarfi, nasoslarning ishlashini boshqarish, avariyalarni monitoring qilish, noqonuniy ulanishlarni aniqlash hamda buxgalteriya va ombor tizimlarini integratsiya qilish orqali boshqaruv tizimi samaradorligiga erishiladi.

Yana bir qulaylik: suv sifati va xavfsizligi monitoringi uchun “WATER LAB” axborot tizimi joriy etilib, testdan o‘tkazilmoqda. Bu jarayonda laboratoriyalar to‘liq raqamlashtirilib, hisoboti elektron tarzda yuritiladi. Natijada yurtimiz bo‘ylab ichimlik suv sifatini nazorat qilish imkoniyati sezilarli darajada kengayadi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Dolzarb mavzu

TIL BILISH SERTIFIKATI

Go‘yo kechagina talabalar safiga qabul qilingan yigit-qizlar bugun o‘qishni bitirish arafasida. Vaqt yugurik, ko‘z ochib-yumguncha to‘rt yil suvdek oqdi-ketdi. Hademay “oltin davr” adog‘iga yetadi. Bitiruvchi kurs talabalari bitiruv-malakaviy ishi yozish va yoqlashga tayyorgarlik bilan band. Orada qolib ketgan fanlarni qayta topshirayotganlar ham yo‘q emas.

Bu yildan boshlab bo‘lajak magistrlar uchun ushbu talab bekor qilinayotgani rostmi?

Mansurbek JABBOROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qo‘l-qo‘lga tegmay, hatto erkinroq nafas olishga ham vaqt bo‘lmayotgan bir paytda ikki yildan buyon chet tili kursiga qatnayotgan kursdoshimiz jig‘ibiyron bo‘lib, “Magistraturada o‘qish uchun chet tilini bilish darajasi talabi bekor bo‘lishi mumkin ekan”, deya ichimizga g‘ulg‘ula solib qo‘ydi. Xabar universitetda yashindek tez tarqaldi. Buning ustiga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ham chet tili sertifikati talabi bekor bo‘lishi mumkinligi haqida xabarlar e’lon qilina boshladi.

Bu hammaning xayolini o‘g‘irladi. Sababi o‘qishni magistraturada davom ettirishni reja qilganlar bir necha yildan buyon chet tili kursiga qatnagani, shuncha sa’y-harakati yo‘qqa chiqishidan xavotirda. Aslida, til bilgan yaxshi. Bugun zamonaviy kadrlarning birorta xorijiy tilni bilish, shu orqali chet el tajribasini o‘rganish va faoliyatida qo‘llash malakasi nihoyatda qadrlanadi. Biroq magistraturaga qabul jarayonida nomzoddan til sertifikati talab qilinayotgani ko‘plab iqtidorli yoshlarning nazardan chetda qolishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Uch yilda salkam 207 milliard so‘m zarar

2022/2023-o‘quv yilidan boshlab OTMlarning magistratura mutaxassisligiga hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklariga tanlovlarda milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy qilindi. Bunda filologiya yo‘nalishi bo‘yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo‘nalishlar bo‘yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talabi belgilandi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobotiga ko‘ra, 2021-yildan davlat OTMlarining magistratura bosqichiga o‘qishga kirish uchun chet tili sertifikati talabining majburiy qilib qo‘yilishi kvotalarning ochiq qolishiga, oqibatda moliyaviy mustaqil OTMlarning jiddiy zarar ko‘rishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, 2021-yilda 20,7 foiz, 2022-yilda 80,2 foiz, 2023-yilda esa 62,6 foiz kvota ochiq qolgan.

Shuningdek, 2021-yilda magistratura uchun 78,8 ming talabgor, 2022-yilda 5,2 ming, 2023-yilda 6,3 ming kishi hujjat topshirgan yoki talabgorlar soni so‘nggi uchinchi yilda 12,5 barobar kamaygan. Buning ortidan esa ochiq qolgan kvotalar sabab oliy ta’lim muassasalari 2021-yilda 18,6 milliard, 2022-yilda 101,8 milliard, 2023-yilda esa 85,8 milliard so‘m zarar ko‘rgan.

Biroq hisobotda chet tili sertifikati talabining majburiy etib belgilangani OTMlar magistratura bosqichidagi ta’lim sifatiga qanday ta’sir qilgani haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

Mas’ullar masalaga aniqlik kiritdi

O‘quv yili tugab, magistratura bosqichi uchun sinov boshlanadigan palla yaqin. O‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lganlarning esa boshi qotgan. Nihoyat mas’ullar tushunmovchiliklarga

aniqlik kiritib, talabalarni o‘ylantirayotgan savollarga javob berdi.

Ma’lum qilinishicha, musiqa va san’at yo‘nalishida o‘qishni davom ettiradiganlardan magistratura bosqichi uchun til bilish darajasi talab qilinmaydi. Bir nechta magistratura ixtisosligi uchun til bilish darajasi bekor qilinib, ba’zi yo‘nalishlar uchun o‘zgarishsiz qoldirildi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: yuqoridagi kabi talab talabalar uchun qanchalik imkoniyat yaratadi? O‘zgartirilgan talab avvalgidek kvota to‘lmay qolishiga sabab bo‘lmaydimi? O‘zi til bilish darajasi sertifikati talabi qaysi yo‘nalishlardan olib tashlandi? Qaysi yo‘nalishlar uchun o‘zgarishsiz qoldirildi? Ushbu savollarga javob izlab, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas’ullari bilan bog‘landik.

Ta’kidlanishicha, magistratura va doktoranturaga qabulda xorijiy tilni bilish to‘g‘risidagi sertifikat talabi quyidagicha o‘zgartiriladi: ta’lim dasturini xorijiy tilda yakunlagan talabalar uchun sertifikat talabi bekor qilindi. Soha xususiyatidan kelib chiqib, madaniyat, san’at, sport, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish, muhandislik ishi, qishloq xo‘jaligi, veterinariya, arxitektura va qurilish, fizika va tabiiy fanlar, transport xizmatlari yo‘nalishlari bo‘yicha sertifikat talabi bir pog‘ona — B1 darajasiga tushiriladi. Sertifikat talabi xorijiy tillar yo‘nalishida C1 darajada, aniq fanlar, biologiya, matematika, huquq, jurnalistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va iqtisodiyot yo‘nalishlarida B2 darajada saqlanadi.

Kadrlar malakasiga ta’siri

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: xo‘sh, bu talab bilan nimaga erishyapmiz? Xorijiy tilni bilish darajasi sertifikati bo‘lmagan talabalar o‘qishni magistraturada davom ettira olmasligi tufayli yaxshi mutaxassislardan ajralib qolmayapmizmi?

— Aholisi ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar va boshqa ko‘plab mamlakatlardagi oliy o‘quv yurtlarida IELTS sertifikati talab qilinadi. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarga ishlashga bormoqchi bo‘lganlar ham shunday sertifikat olishi kerak, — deydi O‘zJOKU katta o‘qituvchisi Davron Mansurov. — Shu sabab ko‘pchilik yoshlar IELTS sertifikatini olishga intilmoqda. OTMlarning magistratura va doktorantura bosqichiga hujjat topshirishda ham til sertifikati talab qilinmoqda. O‘tgan yilgi qabul jarayonida O‘zbekiston OTMga xorijiy til sertifikati talabi bois, davlatning magistraturaga qabul kvotalari bajarilmadi. Bu talab oldimizga bir qancha muammolarni qo‘yadi.

Birinchidan, bakalavriat bosqichining ilmiy faoliyatni davom ettirish salohiyatiga ega bitiruvchilarini OTMda olib qolish imkoni yo‘qolayotir.

Ikkinchidan, chet tillarni mukammal biladigan yoshlar ta’limni xorijda davom ettirishni ma’qul ko‘radi.

Uchinchidan, salohiyatli, oliy ma’lumotga ega mahalliy yoshlar chet davlatlar mehnat bozorini to‘ldiryapti va davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltirmayapti.

To‘rtinchidan, chet davlatlarga ishga ketgan yoshlarning yurtga qaytish kafolati yo‘q.

Shularga asoslanib, mamlakatimiz OTMlarida magistratura va doktoranturada ilmiy faoliyatni davom ettirishni niyat qilgan salohiyatli yoshlar uchun chet tillarni bilish darajasini belgilab beruvchi sertifikat talab qilish amaliyotidan voz kechishimiz kerak.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, til sertifikatiga ega talabalarning ko‘pi o‘qishini davom ettirish uchun chet elga chiqib ketmoqda. Yurtimizda emas, boshqa mamlakatlarda faoliyat yurityapti. Bu esa yaxshi mutaxassislardan ayrilib qolayotganimizni ko‘rsatadi.

Talabalar nima deydi?

Til bilishi darajasi sertifikatiga doir so‘nggi yangiliklar talabalarga qanday ta’sir qildi? Yoshlar qanday o‘zgarishlarni kutgan edi? Sertifikat bo‘yicha talablar o‘z holida qolgani ma’qulmidi yoki umuman bekor qilingani?

— Ta’limning magistratura bosqichi uchun hujjat topshirayotgan talabalardan xorijiy tilni bilish darajasi to‘g‘risidagi sertifikat talab qilinishi, albatta, yaxshi, — deydi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi Kamoliddin Ro‘zimatov. — Buning natijasida ko‘plab yoshlarda xorijiy tillarni o‘zlashtirishga intilish oshadi. O‘tgan vaqtda shunday ham bo‘ldi. Kasbiy yo‘nalishiga qo‘shimcha ravishda xorijiy til o‘rganib, sertifikat olganlar soni ko‘paydi. Biroq ushbu tartib ayrim talabalar uchun ham, oliy ta’lim tizimi uchun ham bir qancha muammolarni keltirib chiqardi deb o‘ylayman. Bakalavriat bosqichidagi talabalar o‘qish davomida chet tilini o‘zlashtira olmagani, sertifikati yo‘qligi sabab “Magistraturada keyinroq o‘qiyman” degan fikrga keldi. Tajribada bunday bitiruvchilar keyinchalik umuman o‘qish fikridan qaytib qolganiga guvoh bo‘ldik. Chunki bakalavriatni tamomlagandan so‘ng 1-2 yil o‘tib, bilim bir oz pasayadi. Bundan tashqari, bakalavriatda o‘qish davomida chet tilini zo‘r o‘zlashtirib, sertifikat olgan talabalar yurtimizdagi oliygohlarga emas, balki xorij OTMlariga kirib o‘qiyapti. Agar bu talaba davlat granti asosida o‘qigan bo‘lsa, unga sarflangan pul shunchaki havoga uchyapti, tayyor kadr boshqa mamlakat uchun ishlab beryapti. Yaqinda e’lon qilingan o‘zgartirishlar esa muammolar yechimiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi deb o‘ylayman. Bu daromadi kamayib ketgan ayrim OTMlarni tinchlantirish uchun ko‘rilgan vaqtincha choraga o‘xshaydi.

Sirtqi ta’limni bosqichma-bosqich tugatish haqida ham gap ketgan. Buning o‘rniga masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yilar ekan. Mazkur o‘zgartirish ham sezilarli natija bermasa kerak. Qaytaga bunday tartibda o‘qiydigan talabalar bilimining yanada pasayib ketishiga sabab bo‘ladi. Karantin paytida sinab ko‘rilgan bu amaliyot. Bir talabaning o‘rniga boshqasi javob berib, yuqori baho olishiga, ma’ruza vaqtida kamerani o‘chirib, boshqa ish bilan shug‘ullanishiga imkon yaratgani bilan ko‘plab pedagoglarning e’tiroziga sabab bo‘lgan.

— Til sertifikati talabi bo‘yicha o‘zgarishlar tushunmovchiliklarni bartaraf qilish o‘rniga chalkashtirib yubordi, — deydi talaba Diyorbek Abdurahmonov. — Nega endi san’at va musiqa yo‘nalishi uchun til bilish darajasi sertifikati talab qilinmasligi kerak? Talab barcha uchun barobar bo‘lsin. O‘zini oqlamayotgan va talabalarning o‘qishga qiziqishiga ta’sir ko‘rsatayotgan ushbu talabdan yo butkul voz kechish, yo hamma yo‘nalish uchun bir xil joriy etish kerak. Bu holat xuddi talabalarni tabaqalashtirishga urinishga o‘xshaydi. Tabiiyki, ushbu jarayon talabalarda bir qancha savollar tug‘ilishiga sabab bo‘lyapti. Baribir muammo muammoligicha qolyapti. Bakalavriat bosqichini tamomlagan talabaning til bilish darajasi bo‘yicha sertifikati bo‘lmasa, magistraturaga hujjat topshirolmaydi. Natijada talabaning o‘qishni davom ettirish istagi ham so‘nib boradi va magistraturada o‘qimay qo‘ya qoladi. Misol uchun, o‘zim ham magistratura bosqichida o‘qimoqchiman. Biroq sertifikatim yo‘qligi tufayli bunday imkoniyatdan vaqtida foydalana olmayman. Chet tilini o‘rganib, so‘ng o‘qishni davom ettiraman desam, vaqtdan yutqazaman.

Adolatli yechim zarur

Joriy yil 6-may kuni Prezidentimiz huzurida oliy ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Unda bir qancha muhim masalalar tahlil qilindi. E’tiborlisi, endi muayyan yo‘nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to‘plagan abituriyent, tanlagan oliy ta’lim muassasasidan qat’i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya’ni yuqori ball olgan yoshlar o‘qishga kirmay qolmaydi. Bundan tashqari, endi davlat granti 4 yilga bitta talabaga emas, balki har yili yuqori baholarga o‘qigan talabalar orasida qayta taqsimlanadi. Davlatimiz rahbari bu tizimni adolatli yo‘lga qo‘yish, yoshlarga va ota-onalarga yetkazish zarurligini ta’kidladi. Ko‘plab talabalar, abituriyentlar bu xalqchil o‘zgarishdan quvonmoqda. Chunki endi o‘qigan ko‘chada qolmaydi.

Til bilish darajasi sertifikati masalasida ham mana shunday adolatli yechim kerak. Masalan, talabalar fikridan kelib chiqib, xorijiy til bilish darajasi talabini turli yo‘nalishga har xil qilib belgilagandan ko‘ra nomzod magistratura bosqichiga kirib, o‘qishini tamomlaguncha til sertifikatini o‘zi o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasasiga olib kelib topshirsa, ehtimol, maqsadga muvofiq bo‘lar. Shunda o‘z ishining mutaxassisi bo‘lgan talaba bilimini yanada mustahkamlash uchun magistratura bosqichida bemalol o‘qiy oladi va kadrlar masalasi ham o‘z yechimini topadi. Oliy ta’lim tizimi esa moliyaviy qiyinchiliklarga uchramaydi.

Islohotlar amalda

BOLALAR MAKTABGA SHUNCHAKI KELIB KETMASIN

Bir zumda joriy o‘quv yili ham yakuniga yetyapti. Bitiruvchilarda hayajon, ota-onalar oldida esa jiddiy masala: “Farzandimni qayerga, nimaga yo‘naltirsam ekan?”. Ayniqsa, o‘g‘li yoki qizi 9-sinfni tamomlayotganlarda bu o‘y ko‘proq bo‘lishi tabiiy. Akademik litseyga borgani ma’qulmi, kasb-hunar kollejigami yoki 11-sinfga qadar maktabda o‘qishni davom ettirgani yaxshimi?

Aksariyat bitiruvchilarning o‘zi ham kim bo‘lsam ekan, degan savolga aniq javob topa olmay, duch kelgan mutaxassislikni tanlashga majbur. To‘g‘ri, farzandining keyingi taqdirini o‘zi hal qiladigan ota-onalar ham bor. Bolaning qiziqishiga qaraydiganlar esa insonning o‘zini baxtli his qilish darajasi tanlagan kasbi bilan bog‘liqligiga ishonadi. Biroq har ikki yo‘lda kutilmagan tasodiflar bo‘lishi mumkin. Qisqasi, farzand kelajagi masalasida shunchaki qaror qabul qilib bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda maktablardagi kasb-hunarga yo‘naltirishga mas’ul xodim — psixologlar ota-onaga ma’lum ma’noda yordam bera olishi mumkin. Chunki ular mutaxassis sifatida bolaning qiziqishini ba’zi ota-onalardan yaxshiroq biladi. Ular sabab to‘g‘ri yo‘l tanlagan yoshlar amaliyotda buni isbotlayotganiga guvohmiz.

Davlatimiz rahbari maktab o‘quvchilarining qiziqishidan kelib chiqib, ularga kamida ikkita xorijiy til va bitta hunar o‘rgatishni taklif qilgandi. Tajriba uchun barcha hududlarda maktablar tanlab olindi. Hokimliklarga mazkur maktablarda kasb-hunar ustaxonalari tashkil etish, jihozlash va zarur ashyolar bilan ta’minlash topshirig‘i berilgan. Yoshlar yetakchilari, tadbirkorlar ham jalb etilgan mazkur tajriba uchun Yoshlar jamg‘armasidan mablag‘ yo‘naltirilyapti. Chet tillarni sifatli o‘rgatish uchun esa maktablarga “til egasi” bo‘lgan pedagoglarni jalb qilish, Prezident maktablarining til o‘rgatish tajribasi, darslik va dasturlarini tatbiq etishga e’tibor qaratilyapti.

— Mamlakatimizdagi 208 ta maktabda ikkita xorijiy til va muayyan kasbga o‘rgatish amaliyoti joriy qilindi. Ikkinchi xorijiy tilni o‘rgatishga o‘quvchilar ham, o‘qituvchilar ham katta qiziqish bildirdi. Bir yil davomida bu amaliyot yaxshi natija berdi. Haftada 2 soat ikkinchi xorijiy til o‘qitildi. 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab mazkur amaliyot 10-sinflarda qo‘llanadi. Chunki 9-sinfni tamomlagan o‘quvchi oldiga aniq maqsad qo‘ygan bo‘ladi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Shahlo Temirova. — 10-sinfdan ikkinchi xorijiy til intensivlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Ya’ni haftasiga 2 soat emas, 4 soatdan o‘tiladi. Ayni paytda vazirlikka 370 dan ortiq maktab 2 ta xorijiy til o‘rgatish amaliyotini joriy etish taklifi bilan chiqqan. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, bu boradagi ishlar aniq reja asosida davom ettiriladi.

Vazirlik xodimining aytishicha, o‘quvchilarning qiziqishi, hududlar ehtiyojidan kelib chiqib, kasb-hunar amaliyotiga moslashtirilgan maktablar soni ko‘proq. Xususan, Samarqand viloyatida qo‘shimcha 80 ga yaqin maktabda kasb-hunarga o‘rgatilyapti. Bu yaxshi, albatta. Muhimi, ehtiyoj bor. Ayni faoliyat yoshlarni tarbiyalash barobarida hayot maktabiga tayyorlashga xizmat qiladi. Hunar insonni sabr-bardoshli bo‘lishga undaydi, hamisha rizqlantirib turadi. Buni tushunib yetgan maktab o‘quvchilari allaqachon bir hunarning etagidan tutgan. Jumladan, Andijon shahridagi ta’lim muassasalarida kasb-hunar egallab, hatto mo‘may daromad topayotgan o‘quvchilar safi kengayyapti. Yaqinda shahardagi 18-maktabda “Orzularni maqsadlarga aylantiramiz” shiori ostida “Yetuk hunarmand” forumi o‘tkazildi. Unda hunarmand o‘quvchilar mahsulotlari ko‘rgazmasi namoyish etildi.

Demak, bugun ilgari surilayotgan tashabbusu takliflar, yangi tajribalar amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etilsa, albatta, kutilgan natijaga erishamiz. Aslida, ayni shu maqsadlar Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida aks etgan. Unda 7-sinfdanoq interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazish, kasb-hunarga qiziqishlarni aniqlab, ma’lumotlar bazasini yaratish, har oyda bir marta “Kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar, 8-sinflarda har chorakda kamida bir marotaba “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-treninglar olib borish belgilangan. 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijasi asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida o‘qishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish zarurligi qayd etilgan.

O‘quvchilarning kasbiy qiziqishini oshirishda, kasblar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishida o‘z sohasining fidoyilari, mehnatidan sharaf topganlar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib turish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Munojat Rahimjon qizi,
jurnalist

2024-yil 17-may, 95-son

Bu galgi festivalga 60 dan ortiq davlatdan ishtirokchi keldi. Endi nafaqat zardo‘zlik, zargarlik, balki kashtachilik san’ati ham namoyish qilinyapti. Mamlakatimiz bo‘ylab hunarmandlar qatnashyapti. Ularning zardo‘zlik bilan uyg‘unlikda yangi ashyolar yaratishni niyat qilgani, albatta, quvonarli.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

17-MAY – O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI HALIMA XUDOYBERDIYEVA TAVALLUDI KUNI

Har yaprog‘i yurakday titrab turgan daraxtman...

(Badia)

Uning she’rlaridan daryoning ovozi keladi. Xalq esa daryosiz yasholmaydi.

Ibrohim G‘AFUROV, O‘zbekiston Qahramoni, munaqqid

Teraklarning endigina nish urgan och yashil barglari bahor shabbodasida tovlanib, masrur titrab turgan kezlar edi. “Kosmonavtlar” metro bekatidan chiqib, biz, havaskor shoira qizlar she’r o‘qib ketyapmiz:

So‘zlamog‘im kerak men sizni,
Sizlamog‘im kerak men sizni.
Qay bog‘larda yozarkansiz barg,
Izlamog‘im kerak men sizni.

Inson yuragini savollar kuydirgan kezlarda, hali o‘zligini topa olmay, sarsona o‘rtangan lahzalarda “Suyanch tog‘lari”ni izlab qoladi. Bolaligimiz bor ekan, to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib borsak, kulib chiqqan, bag‘rini ochgan ustozimizning she’rdan boshqa tashvishi yo‘qligiga, biror savol bersak, albatta, javob aytishiga, har birimizning dardimizni tinglab, maslahat berishiga shu qadar ko‘nikib qolgan edikki...

Ustoz bilan qachon suhbatlashmaylik, taqdiridagi har kechmishni qaysidir ko‘ngil odami, shoir-u yozuvchi hayotidagi chigalliklar va ko‘ngilsizliklar bilan bog‘lar, ular bu sinovlarga qanday bardosh berganini mag‘rur so‘zlar edi. Keyingi paytlarda barcha tahririyatlar-u adabiy davralardan chetlashtirilib, go‘yoki uy qamog‘ida o‘tirgan shoiraning bu qadar baland ruhiyatidan, matonatidan ko‘zlarimizga yosh kelardi. Beixtiyor Shavkat Rahmonning mana bu misralarini ovoz chiqarib o‘qiy boshlaganimizni sezmay qolardik:

Baland daraxtlar bor,
qulaganda ham
hech kimga aytmaslar qiynoqlarini.
Hech kimsa eshitmas,
eshita olmas
baland daraxtlarning ingroqlarini...

Bu daldamizdan opaning chehrasi yorishib, bizni mahkam bag‘riga bosar: “Qizlar, yuringlar, gulu maysalar isi kezayotgan shu bahor havosidan to‘yib-to‘yib hidlab, suhbatimizni terakzorda davom ettiraylik”, derdi.

Terak barglari shivirlagan yo‘lakdan ketib borar ekanmiz, ustoz o‘sha paytdagi qancha to‘siqlar-u tanqidlarga, mish-mishlar-u g‘iybatlarga qaramay, qaddini raso tutib, yo‘l-yo‘lakay she’r o‘qib borardi. Uyi atrofida kezib yurgan maxsus xizmat xodimlari opani ko‘rib yugurib kelishi va alohida ehtirom bilan salom berishidan g‘ururlanib ketardik. Axir ruhiyati yuksak insonni dunyoning mayda tashvishlari, ikir-chikirlari ega olmasligini ular ham sezarkan-da, deya quvonardik.

Men shu tuproq kuychisiman, kim aytar: “Tinar!
Qaysi bir kun gullagan shox misoli sinar”.
Sinsam agar, yaratmoqdan tolsa tafakkur,
Milt-milt o‘cha boshlasa gap yuragimda qo‘r,
Qalam tushsa qo‘llarimdan yetmay bardoshim,
Fikrlarning shiddatidan toliqsa boshim,
Bir oh tortib, o‘zni yana qayta tiklayman,

Men shunday, ha, singanda ham kuylovchi nayman!

Bunday misralarni eshitgan shogirdlar yanada ruhlanib ketar, har birimiz bisotimizdagi eng yangi misralarimizni tezroq o‘qib, ustozning munosabatini bilgimiz kelar edi. Bu safar men o‘zim yozgan she’rlardan emas, tarjimalarimdan o‘qidim:

Orzular… hayotda tushdek kechasiz,
Og‘ulab izma-iz qalbni, umrni.
Behuda safsata, ontlar ichasiz,
Qani, o‘zgartirsam, deyman barini.
Yashash o‘zi qiziq, qiziqdir bilmoq,
Illo, oy ostida barchasi ko‘hna.
O‘lik ruhga hayot baxshida etmoq,
So‘z qudrati bilan kechgan mo‘jiza.

Ne so‘zki, ongimga oqdi nur bo‘lib,
Ularni sharh etdim qalbimga doir.
Misralarim o‘qib, asta jilmayib,
Qabrtoshim o‘yib yozdilar: “SHOIR”.

— O‘lik ruhga hayot baxshida etmoq, — shivirlaydi Halima opa. — Qanday g‘amgin va shu g‘amginligida qalbingni nurlantiradigan misralar... Blokni men ham yaxshi ko‘raman. Tarjima qilavering. O‘zga ruhiyat mo‘jizalaridan sizning-da qalbingiz ulgi oladi. Men esa shu kunlarda yana Hazrat Yassaviyga oshnoman. Bu dunyo kulbasi qachon boshimizdan tuproq sochib, to‘kilib ketishini hech birimiz bilmaymiz. Biroq qalbimizdagi e’tiqod nuri, asl ishq javohiri bizni har qanday vaziyatda omon saqlagay... Bu dunyoning falokatlari-yu u dunyoning xavotirlari — barcha-barchasi Allohni tanigan bandalar uchun hech narsa emasdir.

Ustozning so‘zlaridan ko‘z o‘ngimizda ko‘hna bir kengliklar, yangi bir obrazlar jonlanadi. Halima opa yana o‘ktam ovozda misralarni yoddan o‘qiy boshlaydi:

Men — benavo, chah-chahidan ayrilgan,
Yassaviyday hamrohidan ayrilgan,
Bor quvonchi, bor ohidan ayrilgan,
Taqir sahro, qurib qolgan dil bo‘ldim.
Dardlarimni terib tortaman simga,
Arosatda jon kelmoqda halqumga,
Yassaviyni kimga oldirdim, kimga,
Avj pardada tildan qolgan til bo‘ldim...

Ha, biz o‘sha lahzalar umrimizning eng go‘zal onlari ekanini, ustoz bizga so‘zlagan hayot xulosalari, saboqlari, sinovlari bir kuni bizlarni-da o‘yga toldirishini, ijodkor hayoti, aslida, bir umrlik zahmat, bir umrlik sog‘inch, mashaqqat ekanini anglamaganmiz.

— Ayniqsa, ayol ijodkorga aslo oson bo‘lmaydi, qizlarim, — derdi Halima opa. — Biroq bu iztiroblarsiz ham hayot juda huvillab qoladi. Yaratganga mangu talpinish zavqi, mangu ishq yo‘lidagi yorug‘ yo‘l deb anglang o‘z hayotingizni. Uvaysiy, Mohlaroyimdan boshlab, qaysi bir ishq sohibasining ko‘ngil nomalarini varaqlasangiz, ana shu haqiqatni anglaysiz:

Mohlaroyim, chin oyim, ayting,
Hamon dardimiz chekasizmi?
Bizlar g‘amdan to‘kilgan payti,
Go‘ringizda siz cho‘kasizmi?
Nomard yursa qad kerib, suygun,
Mard tuproqqa bersa tushini,
Tun sizdanam qocharmi uyqu,
Yig‘laysizmi bizga qo‘shilib?..

Ustozning bu misralaridan so‘ng, nazarimda, shundoqqina tepamizda bosh chayqab tebranib turgan teraklar nolasi eshitilgandek bo‘ladi.

— Ustoz, nega daraxtlar haqida ko‘p yozasiz?

Bu savolimizdan Halima opaning chehrasi yanada yorishib ketadi.

— Daraxtlarni tinglashni yaxshi ko‘raman. Ularning shivirida dunyodagi eng dardli va eng chiroyli, eng yoqimli ohanglar bor. Har birining ildiz otgan, tuproqqa yashirgan ulkan dardi bor. Biroq ular ko‘z yoshi qilmaydi, uni ichiga yutadi.

Daraxt bardoshidan qilsa bo‘lar toj,
Qo‘rg‘oshin o‘ylarga cho‘mib kelgan payt.
Qishning eshigiga o‘zi yalang‘och,
Barglar — bolalarin ko‘mib kelgan payt.
Bormi bu dunyoni ko‘rolguvchi ko‘z —
Kuzatib qushlarning galalarini,
Sariq hasrat bo‘lib yoyilarkan kuz,
Daraxt yo‘qlaganda bolalarini!
Vo darig‘! Bu daraxt qandoq o‘lmaydi,
Unsiz o‘kirigi yer, ko‘kni buzar.
Daraxt ko‘z yoshini ko‘z-ko‘z qilmaydi,
Daraxt o‘z yoshini ichga oqizar.
Ayol!
Allohga ayt arz-u nolangni.
Mayli, beshon va yo besamar o‘tgin.
Faqat Kuz olmasin biror bolangni,
Daraxt faryodidan bexabar o‘tgin!..

Har bahor o‘sha suhbatlar, she’riy lahzalar, tengsiz saboqlarga boy damlarni sog‘inib yo‘lga tushaman. “Kosmonavtlar” metrosidan chiqib, atrofga ming alanglamay, biz kezgan terakzorlarni topolmayman. “Har yaprog‘i yurakday titrab turgan daraxt”ni izlayman...

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boqiy meros

BUXOROLIK USTA QARZINI QANDAY UZDI?

Chamasi o‘n yillar avval britaniyalik ikki fuqaro Buxorodagi mashhur zardo‘zni izlab keladi. U bilan uchrashib, 400 yillik tarixga ega oilaviy gerbini zardo‘zlik uslubida qayta tiklash uchun buyurtma beradi. Undan avvalroq esa bir guruh germaniyalik 200 yillik qo‘l mehnatini ta’mirlatish uchun aynan shu zardo‘zga murojaat qilgan. Natijada baliq suyagini qayirib yasalgan naqshlar ustidan tikilgan ikki asrlik antiqa tarixiy yodgorlik (nimcha) Buxoroda qayta sayqallangan.

Minglab chaqirim uzoqdan xorijliklar izlab kelayotgan zardo‘z buxorolik usta Baxshillo Jumayev edi. Mana, 55 yildirki, umr daftarini ham zarhal sahifalar bilan bezab kelyapti. U zardo‘zlik hadisini olganlarning oltinchi avlodi vakili. Mamlakatimiz bo‘yicha zardo‘zlik yo‘nalishida 7 kishi O‘zbekiston xalq ustasi maqomiga munosib ko‘rilgan. Shulardan 4 nafari buxorolik. Ulardan biri Baxshillo Jumayevdir.

Baxshillo akaning mahsulotlari mahalliy bozordan tashqari 20 dan ziyod davlatgacha yetib bordi. Ular yuqori narxda sotilibgina qolmay, Fransiya, Germaniya, AQSH va Xitoy kabi davlatlardagi muzey va ko‘plab xorijlik sayyohlar xonadonida saqlanyapti. Ustaning zardo‘zi mahsulotlari orasida maxsus e’tibor va vaqt talab etadigan, nufuzli ko‘rgazma va tanlovlar uchun yaratiladigan san’at asarlari ham mavjud.

— Shu paytgacha 25 davlatda o‘tkazilgan ko‘rgazmalarda qatnashdik. 2019-yili yurtimiz ham birinchi marta Xalqaro hunarmandlar festivaliga mezbonlik qildi. Bu bilan o‘ttiz yillik armonimiz ushaldi. 2022-yildan buyon zardo‘zlik va zargarlik festivali o‘tkazilayotgani esa katta tarixiy voqeadir. Birinchi festivalga 60 dan ortiq davlatdan zardo‘z va zargarlar keldi. Ular orasida 20-25-yil oldin mendan zardo‘zlik sirlarini o‘rgangan xorijlik shogirdlarim ham qatnashganidan juda xursand bo‘ldim, — deydi usta. — Qarang, shuncha san’atni o‘zida mujassam etgan Xitoyda zardo‘zlik san’ati yo‘q ekan. Aslida, xitoyliklarni amaliy san’at namunalari bilan qoyil qoldirish qiyin. Lekin ishlarimiz ularda katta qiziqish uyg‘otdi. Pavilyonimizdan odam arimadi, qayta-qayta zardo‘zlik san’ati haqida so‘rab kelaverishdi. Katta hajmli, 7-8 oyda tikiladigan to‘nlarimizni olib borgandik. Ko‘plab asarlarimizni xarid qilishdi.

Xitoyliklarning zardo‘zlik san’atimizga astoydil qiziqqani bejiz emas. Baxshillo Jumayev qadimiy an’analarni saqlab qolgan holda, asosan, qo‘l mehnatiga urg‘u beradi. 40 yildan buyon zardo‘zlikka oid ma’lumotlar, suratlarni yig‘ib, kitob qilishga kirishgani ham kasbiga fidoyiligidan dalolat.

— Kitob yozishdan birinchi maqsadim ikki ming yillik zardo‘zlik san’ati tarixini xalqqa yetkazish edi. Shuningdek, oxirgi 100 yilda yashab o‘tgan zardo‘zlar hayoti va faoliyati to‘g‘risida yozmasam bo‘lmasdi. Chunki ba’zilari bilan birga ishlaganman. Ular xalq nazariga tushgan ustalar, rassomlar edi. Shu bois, o‘zimni ular oldida qarzdor deb bilardim. Qolaversa, zardo‘zlikning 30 dan ortiq tikish uslubini yoshlarga qoldirishni niyat qildim va maqsadimga erishdim. Kitobda chizmalar orqali har bir uslub haqida tushuncha berilgan, bundan foydalanib, bemalol san’atimizni davom ettirish mumkin, — deydi Baxshillo Jumayev.

Usta zardo‘zlikning 30 dan ziyod uslubini o‘zida jo etgan liboslari bilan “Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik” festivalida 1-o‘rinni egalladi. U bu yil ikkinchi bor o‘tkazilgan mazkur festivalning tashabbuskori, tashkilotchilaridan hamdir.

— Bu galgi festivalga 60 dan ortiq davlatdan ishtirokchi keldi. Endi nafaqat zardo‘zlik, zargarlik, balki kashtachilik san’ati ham namoyish qilinyapti. Mamlakatimiz bo‘ylab hunarmandlar qatnashyapti. Ularning zardo‘zlik bilan uyg‘unlikda yangi ashyolar yaratishni niyat qilgani, albatta, quvonarli. Bu kabi tadbirlar hunarmandlar faoliyatining yanada takomillashuviga yordam beradi, — deydi usta. — Ayniqsa, xalqaro konferensiyalar doirasi tobora kengayib boryapti. Birinchi festivalda dunyo miqyosidagi olimlar biz bilmaydigan ma’lumotlarni yetkazgan, kutilmagan voqealar bo‘lgan edi. Bu yil ham o‘nga yaqin xorijlik olimdan noyob amaliy san’atimizga doir yangi tarixiy ma’lumotlarni o‘rgandik. Ular ham tadqiqotchilarimizdan ancha yangilik oldi. Umuman, xalqaro tajriba almashuvlar yangi bosqichga ko‘tarilyapti.

Baxshillo Jumayev 2022-yili Marg‘ilondagi “Atlas” bayramida “Eng yaxshi hunarmandlik an’anasini saqlab qolgan usta” nominatsiyasi g‘olibi deb topilgan. 2023-yili Qo‘qonda o‘tgan II xalqaro hunarmandchilik festivalida zardo‘zlik yo‘nalishi bo‘yicha yana sovrindor bo‘ldi. Mustaqilligimizning 32 yilligi arafasida “O‘zbekiston xalq ustasi” yuksak unvoni bilan taqdirlandi.

— Yigirma yil avval so‘rasangiz, hunarmandlarning muammosi haqida to‘xtamay gapirardim. O‘n yil oldin ham yechim topilishi kerak bo‘lgan talay masalalar bor edi. Bugun esa hunarmand uchun hamma sharoit yetarli, — deydi usta. — Hunarmandlik mamlakat brendi darajasiga ko‘tarildi. Shuning uchun O‘zbekistonda hunarmandlarga yaratilgan imkoniyatlarga chet elliklar ham havas qiladi. Soliqlardan ozod qilinganimiz, bundan tashqari, hatto shogirdlarimizga ham subsidiya berilayotgani, endi ish boshlagan hunarmand aslo qiynalmasligi haqida g‘ururlanib gapiramiz. Hatto bir kunda 13 ta hunarmandlik markazi ochilganiga ishonmaganlar ham bo‘ldi. U yerda hunarmandlar oilasi bilan birga yashab, ishlashi mumkinligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganidan so‘ng mamlakatimizdan ketgisi kelmay qolganini aytishadi.

Bugun shogirdlari soni mingdan ortgan Baxshillo Jumayev uchun xalqaro tadbirlar o‘ziga xos kashfiyotlari bilan ulkan ahamiyat kasb etadi. Oldiga kelgan har bir sayyoh mahsulotlari targ‘ibotchisi sifatida qadrli. Ular sabab temuriylar davrida eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan zardo‘zlik san’ati dovrug‘i dunyo bo‘ylab taraladi. Amir-u amirzodalar kiygan zardo‘zi to‘nlar nusxasi uzoq-uzoqlarga borib yetadi. Yangi g‘oya, baland marralar sari qadam tashlanadi. Eng muhimi, asl an’analar, qadriyatlarimiz qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1666.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 00:30 Topshirildi — 01:10